


@Sumerki_Twilight_Zulmat_ostonasi



ZULMAT OSTONASIDAGI MUHABBAT – 5

ABADIY QUYOSH BOTISHI

Abduqodir Toshpo'latov

MUQADDIMA

Qudratli qadimiy Volturilar ustidan g'alaba qozonilgan kundan boshlab deyarli 3 oy o'tdi. Biz o'sha kuni g'alaba qozondik va eng buyuk vampir sulolasiga qarshi chiqdik. Ammo qalbimning tubida, hayotimizdag'i xotirjamlik faqat vaqtinchalik hodisa, va ehtimol, bo'ron oldidagi xotirjamlik ekanligiga amin edim, chunki vampirga aylanishim mening barcha yashirin qobiliyatlarimni kuchaytirdi va mendagi qiyinchiliklarni o'ziga tortadigan magnit mening odamlik chog'imda ham yetarlicha kuchli edi. Yangi hayotimda meni nima kutayotganini tasavvur qilish qiyin edi. Ammo men endi shunchaki baxtliman...

1-BOB CHAQIRILMAGAN MEHMON

Men Kallenlar uyidagi zinapoyaning yuqori qismi – o'z uyimda turib, Jeykobning xonada Renesmi bilan o'ynayotganini baxt bilan tomosha qilardim. Ularning yuzlarida shunday sokinlik va xotirjamlik ifoda etilgandiki, men beixtiyor tabssumimni to'xtata olmadim. Mening yuragim, nafaqat, sevgi va quvonchdan to'lib toshdi, balki qalbim (uni haliyam menda borligini his qildim, deb o'yladim) zavqqa to'lgan edi.

- Aftidan u xursand – hayol bilan bo'lib, Edvardning oldimga kelganini sezmadim.

- Ha! U haqiqatan ham men kabi baxtiyor! – qo'llarimning o'zi beixtiyor cho'zilib, Edvardning beliga o'raldi.

- Sen haqiqatan ham ushbu yangi qiyofada o'zingni baxtli deb hisoblaysanmi? U savollar bilan ko'zlarimga qaradi va keyin qo'llari marmar yonog'imga yugurdi. Yuzim muzdek bo'lsa-da, baribir uning taftini his qildim. O'ylaymanki, men uning teginishiga hech qachon ko'nikolmayman. Yuz yillardan keyin ham mening taftim porlaydi va nafasim faqat uning qarashlaridangina to'xtaydi.

- Edvard, menga qara: men sevganimning quchog'idaman, go'zal qizim, katta do'stona oilam bor, hatto o'tgan hayotim bilan aloqamni uzishga ham hojat yo'q edi va oxir-oqibat, hamma narsadan zavqlanish uchun bunday abadiy hayotim bor. Menga kerak bo'lgan yagona narsa – bu sening abadiy muhabbatining!

Bella! Men seni abadiy sevib qolaman. Sen mening borlig'imsan. Faqat sening boligining bilan mening mavjudligim mazmunli bo'ldi va men o'zimni chinakam baxtli his qilyapman! Men seni uzoq vaqtidan beri izladim va endi seni hech qayerga qo'yib yubormayman. "Uning eritilgan misning rangidek ko'zlar shunchalik iliqlik va muhabbatni ifoda etdiki, men uning bo'yniga qo'llarimni tashlab, marmar lablariga lablarimni bosdim. U meni qattiq quchoqladi va biz bir qancha vaqt bir tanadek hamohanglik his etdik. Men abadiy shunday tura olardim. O'sha paytda menga boshqa hech narsa kerak emas edi. Birdan uning butun vujudi toshdek qotib qoldi. Men beixtiyor undan tisarildim.

- Ellis! U jimgina dedi va zinapoyadan pastga uchdi. Men darhol uning orqasidan ergashdim.

Ellis xonasidagi divanda o'tirardi. Uning nigohi uzoqdan ko'rinnmaydigan ko'zlar bilan qayergadir tikilib turardi. Men bu ko'rinishni yaxshi bilardim. Jasper xavotirlanib uning yoniga o'tirdi. U Ellisning qo'lini mahkam ushlab, o'ziga kEllishini kutib turdi.

Bir lahzadan so'ng, yangi ovdan qaytgan Emmett, Karlayl, Rozali va Esme uning xonasiga kirishdi. Bizning xavotirli yuzlarimizdan ular nima bo'lganini darhol angladilar va indamay Edvard bilan menga qo'shildilar.

Bir daqiqadan so'ng Ellis uning nigohini qaratdi va Edvardning ko'zlariga siniqlik bilan tikilib qoldi va u xuddi shu tarzda unga nimalardir uqtirardi. Ushbu jim sahna qancha vaqt davom etganini bilmayman. Bu menga tugamaydigandek tuyuldi.

Karlaylning xavotirli ovozi sukunatni buzdi:

- Sen nimani ko'rding, Ellis? – Karlaayl unga yaqinlashdi va qo'lini yelkasiga qo'ydi.

- Bu bo'lishi mumkin emas! Edvardning ovozi chalkash va umidsiz eshitildi. U gangib qoldi.

- Balki allaqachon hammaga aytarsiz! - Emmett sabrsiz tabassum qildi.

- Men Volturilarni ko'rdim... Aro... biznikiga kelmoqda... – Ellis bu so'zlarni ikkilanib va sarosimada aytdi.

- Nima? Yanaya? Bu safar qanday qilib ularni norozi qildik? Va umuman, bu allaqachon sodir bo'lgan deb o'ylamaysizmi? Ellis, balki keljakni emas, o'tmishni ko'rayotgandirsan? – Emmett Ellisga ishonmaydigan nigoh bilan sanchib qo'ydimi, menga shunday tuyuldi.

- Sen meni tushunmading... Aro kelyapti... Yolg'iz!...

Bu qanday bo'lishi mumkin? – Karlayl suhbatga aralashdi, – Aro hech qachon ishончли himoyachi va atrofidagilarsiz o'z qarorgohidan tashqariga chiqmaydiku? Ellis, bunga haqiqatan ham aminmisan?

- Karlayl! Men faqat ko'rganlarimni aytaman! Nihoyat Ellisning ovozi va hissiyotlari ravshanlasha boshladi. Faqat bir necha oddiy soqchilar unga ergashgan, xolos.

- Lekin nima uchun u bu yerga keladi? Axir, so'nggi uchrashuvimizda biz hamma narsani aniqlab olmaganmidik? – Rozaliyaning ovozida istehzoli ma'no bor edi.

Jasper Ellisning yelkalarini quchoqladi va har bir so'zini aniq ifoda etgan holda xotirjamlik bilan so'radi: – Bizda qancha vaqt bor?

Ellis jasorat yig'ayotgandek darhol javob bermadi. "U deyarli shu yerda... bir soat... balki, undan ham kamroq.

Ushbu so'zlar keskinlashib borayotgan tahlikali vaziyatni yuzaga chiqardi. Bir lahzadan keyin qandaydir ovoz eshitildi, kimdir o'z rejasini muhokama qilayotgan edi, lekin men endi uni eshitolmadim. Aqlim tubsizlikka botganday tuyuldi, vujudim menga bo'ysunishdan bosh tortdi. Agar men inson bo'lginimda, albatta, bu vaziyatda xushimdan ketgan bo'lardim. Chamasi, Edvard mening ahvolimni sezdi. U muloyim qo'llarini belimga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, o'zimni yo'qotishimga yo'l qo'ymasdan meni quchoqladi. Miyamdag'i fikrlar shu qadar tezlikda yoyilib ketdiki, ularning

ma'nosini tushunishga ham ulgurmadi: «Bu haqiqatdan ham oxirmi? Baxt, osoyishtalikning oxiri, bizni endilikda nima kutmoqda?» mavhumlik anchayin qo'rinchli edi. Butun dunyo bir daqiqada ostin-ustun bo'lib ketdi.

Karlaylning sokin ovozi mening mungli fikrlarimni to'xtatdi. Aro kelganda u hali ham xotirjam o'z pozitsiyasini buzmay turardi. Menimcha, biz bu haqda ko'p tashvishlanmasligimiz kerak. Biz allaqachon Volturilarga yuzlab guvohlar oldida o'z haqligimizni isbotlaganmiz. Aro bu safar yolg'iz edi. Men uning tinchlik bilan kelganiga ishonishga harakat qilardim. Hech bo'limganda, biz uning tashrifidan qo'rmasligimiz kerak. Bu so'zlar meni tinchlantirdi va lekin, darhol meni ko'proq ogohlantirdi: nega u bu yerga keladi... yolg'iz... u bizga nimani aytmoqchi? O'zimning soqov savollarimga javob izlab, Karlaylning ko'zlariga qaradim. Uning xotirjam qarashlari menga kuch bag'ishladi. Men harakatlanish qobiliyatini tikladim. O'zimni Edvardning quchog'idan ozod qilib, uylab yotgan Renesimni Jeykobdan olib, bag'rimga mahkam bosdim. Jeykob menga taskin beruvchi nigoh bilan qarardi. Keyingi soat shamol daraxtdan uzib, uzib yuborgan sarg'aygan kuz bargiga o'xshab o'tib ketdi. Balki endi bizning baxtli va beparvo hayotimizning so'nggi soati ham o'tib ketgandir.

Divanda yonimdagina o'tirgan Edvard meni quchoqlab jimgina: "U yo'lda", dedi va men biroz tinchlanib, beixtiyor shirin uylab yotgan Renesimni bag'rimga bosdim. Bizning boshimizdagи noxushlik havosi kuchayib, u yig'ilganlarning har biriga ta'sir etib, eza boshladi. Karlayl birinchi bo'lib o'z ahmoqligidan xalos bo'ldi. U xotirjamlik bilan stuldan o'rnidan turdi va bo'shashmasdan shahdam qadam bilan old eshik tomon yurdi. Uning orqasidan, xuddi kutib turganday, Emmett va Jasper o'rnidan ko'tarilib, Karlaylga ergashishdi. Edvard bag'riga yanada qattiqroq bosardi. Boshqa tomondan, yonimga Jeykob o'tirdi va dalda beradigan tarzda qo'limni siqib qo'ydi.

To'satdan, Aro eshik qo'ng'irog'ini chalmoqchi bo'lgan paytda, Karlayl mohirlik bilan uni ochib: «Aro! Qariya! Seni bizning hududimizda qaysi taqdir boshlab keldi? Tan olaman, seni hech qachon bu yerda ko'rishni kutmagan edim!», bu so'zlar go'yo darvozada yuz yildan beri ko'rilmagan do'stga berilgan edi.

- Mening eski do'stim Karlayl! Seni yana ko'rganimdan xursandman. Men sening uyingga do'stona tashrif bilan va muhim yangiliklar bilan keldim. Ammo, keyinchalik, bularning barchasi haqida batafsil bilib olasan. Endi, ehtimol sen meni ichkariga taklif qilarsan? Eski do'stingni eshik oldida qoldirmassan? – Aro makkorona jilmaydi.

- Albatta! Kir! – Mutlaqo xotirjam nigoh bilan Karlayl tasodifan qo'lini xona tomon cho'zdi, keyin u biz tomonga qarab ketdi. Emmett va Jasper ham unga ergashdilar. Ularning ko'zları g'azab va nafratga to'la edi.

Aro jabrdiydalik bilan biz tomonga burildi. Uning orqasida, izidan qolmay, qora plashli ikki hamrohi kelardi. Yoping'ichlar ularning yuzlarini yopib qo'ygan va bu tarzda ularni tanish imkonsiz edi. Ammo, hattoki bu holat ham, ular Aro ishonib topshirilgan odamlar emasligini tushunishga xalaqt bermasdi.

Volturilarning boshlig'i xonaning markaziga qarab yurdi va bizdan bir-ikki qadam narida ko'zga ko'rinas chegarani buzmasdan to'xtadi. Yuzining terisi yanada yupqa va shaffof bo'lib tuyulardi.

- Salom, do'stlarim! Barchangizni ko'rganimdan xursandman! – u hammamizga mehr bilan qaradi. – Ellis! Azizim! Ishonchim komil – sen kEllishim to'g'risida oilangni oldindan ogohlantirgansan! Uning shov-shuvli ovozi quloqlarga shikast yetkazdi. Ellis xushchaqchaqlik bilan jilmayib qo'ydi va og'zini allaqachon nimadir deyish uchun ochdi, lekin Edvard uni shunday qarshiladi: «Ha, Aro! Huddi shunday! Ellis bizni tashrifing to'g'risida ogohlantirdi – Edvard tishlarini g'ijirlatdi – lekin u bunday kutilmagan tashrifing sababini tushuntirib berolmadi. Balki bu sirni bizga o'zing aytib berarsan!»

- Edvard! Bolaginam! Sen, har doimgidek sabrli va mulozamatli emassan! Meni birdaniga bir nechta sabablar bu yerga olib keldi, ammo, oxir-oqibat, sening qobiliyating sening qiziqqonligingni ancha oldin yumshatishi kerak edi. Shunday emasmi? – Aro hiyla-nayrang bilan Edvardning fikrlarini o'rganayotgandek ko'zlarini qisdi va mammun jilmayishga kirishdi.

Edvard yanada sergak tortdi va nafrat bilan dedi: "Men sening bu uchrashuvga yaxshi tayyorgarlik ko'rganiningni ko'ryapman!", – bu so'zlar meni sarosimaga tushirdi. – Edvard Aroning fikrlarini o'qiy olmaydi! Buni iloji bormi? Baxsni Karlayl to'xtatdi, barchani mehmonxonaga kirishga taklif qildi. U bu joyni jiddiy suhbat uchun eng yaxshi joy deb bilardi. Karlayl, boshqa hech kimda bo'limganidek, davra suhbatining afzalliklarini bilar edi.

Hamma o'z o'rmini egallaganida, Karlayl "aziz" mehmondan uning kEllish sababini aytib berishni iltimos qildi.

Yuzida "samimiyl" tabassum bilan Aro hikoyasini boshladи:

- Do'stlarim! Ehtimol siz allaqachon taxmin qilganingizdek, men bu yerga biron sabab bilan kelganman. Buning uchun yaxshi sabablarim bor edi. Birinchidan, Karlayl, men so'nggi uchrashuvimizda sodir bo'lgan tushunmovchilik uchun saxovat ila kechirim so'ramoqchiman. Ammo aybdorlar jazolandi va umid qilamanki, bu bizning do'stona, deyarli oilaviy aloqalarimizni buzmaydi. – Aro kechirim so'radi...? Oilaviy aloqalarni tiklashga harakat qilmoqchi...?! Bu esa uning yordamimizga muhtojligini anglatishi mumkin edi.

Karlayl kamtarlik bilan bosh irg'ab, barcha kechirimlarni qabul qilganligini tasdiqladi.

Natijada, mammun bo'lgan Aro shoshilib davom etdi:

«Karlayl, sen o'zingni va oilangni qanchalik qadrlashimni va hurmat qilishimni bilasan. Shu sababli, men seni shaxsan yaqinlashib kelayotgan xavf to'g'risida ogohlantirish uchun keldim. – Hikoyaning bu qismi, shubhasiz, boshqalarni ko'proq qiziqtidi. Stol atrofidagilarda jonlanish aks eta boshladи.

- Bir necha o'n yillar oldin, Hindiston hududida biz katta vampir oilasini yo'q qildik – u katta zavq bilan buni aytardi – bu adolatsiz turmush tarziga olib keldi: odamlarning butun turar-joylarini ochiq-oydin yo'q qildi, bo'rilar-mushuklar bilan fitna uyuştirdi va Yerdagi barcha vampirlarni yo'q qilmoqchi bo'lib, hukmron bo'lib olishga harakat qilardi. Biroq, bu o'sha paytlarda mazkur hududning janubi uchun odatiy edi. Ammo eng yomoni shundaki, ularning yetakchisi vampirlarda tajribalar o'tkazgan. Uning asosiy vazifasi mukammal, daxlsiz mavjudot – qotil hayvonni yaratish edi. Afsuski, u qanday natijalarga erishganini bilmaymiz. Biz faqat hududni tozalash paytida bitta tajriba namunasining qochishga muvaffaq bo'lganligini bilamiz, xolos. Keyin u kichkina qiz edi – kichkinagina qiz qochganini o'ylab, yuragim titrab ketdi – ko'z oldimda Renesmi qon to'kkан Volturidan qochgan yuzi gavdalandi. Ushbu qorong'u ko'rinishni iloji boricha tezroq quvib chiqarishga harakat qildim. Hozirgi vaqtda ushbu jonzot rivojlanib, ko'plab qobiliyatlarg'a ega bo'lganligi aniq va ularning bir nechta siyosatiga ma'lum. U o'zgarishga qodir. Bu juda xavfli. Guvohlar uni yoqimli tashqi ko'rinishdagi yosh qiz deb ta'riflashadi. Uning terisi qora va uzun qora sochlari bor. Ularning aytishicha, u shunchaki go'zal va osmondan tushgan farishtaga o'xshaydi. Ammo tashqi ko'rinish aldoqchi. Uning go'zalligi – u xushyorlikni yumshatadigan va susaytiradigan qurollardan biridir. Bundan tashqari, u jismoniy ta'sirga berilmasligini, tashqi ko'rinishini o'zgartirganini va qora panterra ga aylanishini bilamiz. Bundan tashqari, u vampirlarning qobiliyatlarini uchun ov qiladi. U vampirni o'ldirganidan so'ng, uning qibiliyatlarini panterra ga o'tadi. Uni olomon ichida tanib olish qiyin bo'lmaydi, ammo baribir u hid taratmaydi. Aniqrog'i, uning hidi biz uchun sezilmaydi. Siz uni orqa tarafdag'i qora mushukning belgisidan tanib olishingiz mumkin. Mish-mishlarga ko'ra, hayvonning bu belgisi uni himoya qiladi va unga kuch beradi.

O'sha kuni, ya'ni ko'p yillar oldin, u bizdan qochib qutulishga muvaffaq bo'lgandi – Aro og'riqli xotiradan g'azablanib, qisqa tanaffus qildi va hikoyani davom ettirdi – va biz o'sha paytdan beri uni ko'rmadik, bu dunyodagi shafqatsiz va og'riqli hayotga dosh berolmasdan vafot etganiga soddalik bilan o'zimizni ishontirib keldik, afsuski. Ammo biz qattiq adashgan ekanmiz. U kuchliroq va chidamliroq bo'lib, butun vampir raqobatiga qarshi g'azab bilan qaytib keldi.

- Men tushundimki, sizning klaningiz (jamoa, urug' ma'nosida) bu nafratga sabab bo'lgan va u sizlarni yo'q qilishni xohlaydi – Edvard Aroning yuziga mazmunli qaradi.

- Endi uning asosiy maqsadi – Yer yuzidagi har qanday vampirni yo'q qilish. U allaqachon janub tomonga ketgan. Afsuski, undan omon qolganlar yo'q. Mening sodiq xizmatchilarim menga xabar berishganidek, u endi bizning yo'naliishga harakat qilmoqda va uning keyingi maqsadi siz – Aro qorayib ketdi va biroz cho'zib davom etgandan keyin – va keyingi uning so'nggi to'xtash joyi u nafratlanadigan Volturi klani va, umuman, Volterra bo'ladi. Agar siz yiqilsangiz, biz yiqilamiz... Yolg'iz, bizning imkonimiz juda kam. Biz umumi dushman oldida birlashishimiz kerak: Bu mening kEllishimning asosiy maqsadi edi.

Xonada to'liq sukunat hukm surdi, hamma eshitganlari haqida o'yldardi va Aro sabr bilan bizning qarorimizni kutdi.

Karlayl jiddiy nigohini Aroga qaratdi va xotirjamlik bilan: "Agar sizning taklifingizga rozi bo'lsak, bizning imkoniyatimiz qanday?", dedi.

Yolg'iz, sizda ham, bizda ham g'alaba qozonish uchun zarracha imkoniyat yo'q. Ammo aminmanki, birlashish orqali biz bunga qarshi tura olamiz, chunki bizning oilalarimiz dunyodagi eng qudratli ikki oiladir va birlashganda biz tenggi yo'q kuchga aylanamiz. Aro o'midan turdi va nutqini to'xtatmay, asta stol atrofida yurdi: Umumi dushmanimizga qarshi urushda sizning yordamingizga umid qilaman. Bundan tashqari, bu sizning manfaatingizga javob beradi.

Karlayl ishonchli va bosiqlik bilan gapirdi, uning ko'zlari o'zini tuta olish va o'zini tuta bilishini ko'rsatdi – sen asosiy narsani aytmading Aro – u kim?

Aro bizning yuzlarimizga tahlikali nigoh qaradi va jirkanchlik bilan pichirladi: – Hech kim aniq bilmaydi. Biz u vampir va panterra chatishganidagi yarim mavjudod haqida faqat mish-mishlar orqali eshitganmiz, xolos. Afsonaga ko'ra, aqdan ozgan vampir – tajribalarning mevasidir, ya'ni olimlar vampirlar va bo'rilarning genlarini olib, tajribalar o'tkazgan. Boshqa bir afsonada aytishicha, u bo'ri bilan aloqada bo'lgan va keyin yangi tug'ilgan mutant bilan tajriba qilingan. Hozir hech kim aniq aytolmaydi. U o'zini Bagirra deb atashi aniq ma'lum!

Bagirra?! Bu Moughli haqidagi hikoyadanmi? Xo'sh, shunchaki ajoyib! – hayron bo'lgan tabassumidan Emmetning yuzi yorishdi – Balu uning yonidami? Men ayiqlarni yaxshi ko'raman! Biz hali ertak qahramonlari bilan kurashishga majbur bo'limgaganmiz, lekin o'ylaymanki, biz bu yirtiq mushukni o'rmonimizga olib boradigan yo'lni ko'rsatamiz!

Aro norozi bo'lib ko'zlarini qisib, boshini chayqadi: "Do'stim, kinoya qilmang. O'ziga haddan tashqari ishonch bu yerda foydasiz.

- Demak, bo'rilarning boshqa turlari ham bor – Jeykob bu voqeadan hayratda qoldi..

- Ha. Huddi shunday. – Aroning ko'zlari bir lahzaga atrofdagilarni ko'rishni to'xtatdi, u go'yo o'tgan kunlarni aqliy tasavvurida akslantirdi – Hech bo'limganda shunday. Mening klanim dunyo bo'ylab har xil turdag'i bo'rila qarshi kurashgan –

bu g'abalalar haqidagi xotiralar unga katta zavq bag'ishladi – Mening xotiramdag'i eng hayratlanarli narsa ko'rshapalaklar edi – oddiy odamlar ularni, keyinchalik, vampirlarning o'ziga xos turi deb hisoblashgan. Toki biz ularni yer yuzidan yo'q qilmagunimizcha. – Aroning og'zi baxtiyor tabassumni sindirdi, keyin esa to'satdan uning yuzi qorong'i va jiddiy bo'lib qoldi – lekin o'sha paytdan beri dunyo juda o'zgarib ketdi.

- Xo'sh, mening oilamdan qanday yordam kutmoqdasiz? – Karlayl ham stoldan turib, Aroga qarshi pozitsiyani egalladi. Emmett va Jasper ham unga ergashdilar. – Sening ta'kidlashingcha, biz tomonga boshqarib bo'lmaydigan bir yirtqich hayvon kelmoqda, u o'z yo'lidagi hamma narsani supurib tashlaydi va uni qiziqtirgan hamma narsa qasos uchun tashnalik va barcha vampirlarni istisnosiz yo'q qilishdir. Sen bizdan yordam so'rab kelding, lekin u hech qachon nima bilan shug'ullanishini aytmagan eding!

- Ha, Karlayl! Sen haqsan. – Aro kichik qadam tashlab, Karlaylga deyarli yaqinlashdi. – Biz uni sizning uyingizda paydo bo'lishining taxminiy vaqtini bilib oldik. Ayni paytda, men va mening eng yaxshi jangchilarim sizlarga yordamga kelamiz. Kuchlarni birlashtirib, biz hech qanday imkoniyat qoldirmasdan uni yo'q qilamiz.

- Hech qanday hayvon yo'q bo'lsa-chi va bu bizni yo'q qilish uchun shunchaki bahonadir, balki? – Rozali o'ljasini o'ldirishga shay turgan sher misoli Aroga yuzlandi.

- Qadrdomim Rozali – Aro jilmayib qo'ydi – Qanday qilib men, hatto, Karlayl va uning oilasiga zarar yetkazishim haqida o'ylashing mumkin? Bundan tashqari, aziz Ellis meni aldashga yo'l qo'ymaydi. – Rozali jahl bilan qichqirdi va agar uning qo'lidan ushlab olgan Emmetda bo'limganida, u Aroning tomog'idan ushlab olgan bo'lar edi. Ayni paytda, Ellis ko'zlarini yumdi va diqqat bilan gapirdi: – Men haqiqatan ham ba'zi jonzotlarning yondashuvini ko'ryapman – bu odam emas, lekin vampir ham emas. U biznikiga keladi... men uni juda noaniq ko'ryapman, ehtimol bu bo'ri genlari bilan bog'liqligidandir. Men boshqa hech narsa deya olmayman – shu so'zlardan so'ng Ellis ko'zlarini ochdi va xo'rsindi.

- U qachon bu yerda bo'ladi? Edvard iloji boricha beparvo gapishtirsga urindi, lekin men uning ovozidan hayajonni his qildim.

- Bir oydan so'ng! Bu bizga tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt beradi. Oy davomida siz mashq qilib, jangga tayyorlanasiz. Bundan tashqari, bizning qo'limizda yashirin qarta – Bellaning qobiliyati bor, ehtimol bu bizga uning aqliy qobiliyatidan qalqon bo'ladi. Demak, bizga faqat kuchli tayorgarlik va jamoaviy o'yin kerak. Shunday qilib, bir oydan keyin men o'zimning mulozimlarim bilan sizning oldingizga kelaman. Agar siz mening rejamga hech qanday e'tirozingiz bo'lmasa, men o'z

muhitimga qaytishim kerak. Darvoqe, tayyorgarlikni boshlangvering. Aro mulozamat bilan boshini egdi.

- Yaxshi, Aro. Menimcha sen haqsan. Biz buni qilamiz. Karlayl rozilik bildirganday bosh irg'adi.

- Yaqinda ko'rishguncha, do'starim! – bu so'zlar bilan Aro mazmunli jilmaydi va uydan chiqib ketdi. Uning orqasidan qo'riqchilari ham ergashdi.

Biz Aroning kerakli masofani bosib o'tishini kutib, indamay stolga o'tirdik. Bir necha daqiqadan so'ng, Edvard gaplashish mumkinligini bildirib, ijobiy bosh irg'adi.

Karlayl birinchi bo'lib gapirdi – xayriyat, bizda mehmon bo'ldi, ammo Aro biz bilan qanchalik haqqoniy o'ynashi mumkin? Edvard, bu haqda nima deya olasan?

“Men... Aro bu suhbatga o'zini yaxshi tayyorladi. Uning fikrlari to'liq suhbatga yo'naltirilgan va u hammasini juda yaxshi nazorat qildi. Ammo men aniq bir narsaga aminman – Aro yolg'on gapiryapti yoki shunchaki uning so'zları haqiqat – Edvard xotirjam mehmonxonaga nigohini tashladi.

- Ha, lekin Ellisning qarashlari haqida nima deyish mumkin? – Aro shunchaki ochiqchasiga yolg'on gapirganiga ishonolmayapman!

- Ellis, ko'rganlaringni ayt. – Karlayl ehtiyotkorlik bilan uning yuziga qaradi.

Ellis yana uzun kirpiklarning qalin nishlari bilan o'ralgan katta ko'zlarini yumdi – Men hamma narsani quyuq tumandagidek ko'ryapman, bizning uyimizga yaqinlashayotgan bir yosh ayolni ko'rayapman... u juda chiroyli, uning mehribon, nafratomus ko'zları bor. U bizga yomonlik tilamaydi chamasi. Hech bo'limganda buning aksini ko'rmayapman...

Bu qachon bo'ladi? – Edvard mening qo'limni qattiqroq siqib qo'ydi, chamamda...

Ellis ko'zlarini ochmasdan gapirdi – aniq aytolmayman. Balki bir hafta ichida, balki bir yilda...

- Xo'sh! biz Volturiylarga ishonishimiz kerak. Ma'lum darajada... Men hech qanday asosiy qarorlarni qabul qilmaslikni taklif qilaman. Aro bizga yolg'on gapirayotganiga aminman. Men shunchaki, qay darajada ekanligini bilmayman. Biz uning uyg'onishiga tayyorgarlik ko'ryapmiz. Ammo biz doimo o'zimizni muhofaza qilishimiz kerak.

2-BOB KUTISH

Tamom... Shu ibtidoning intiqosi.... Tinchlikning oxiri, bo'ron oldidagi tinchlik. Mening ichimdagি muammolarni jalg qiladigan magnitning kuchi eng yuqori darajaga yetganga o'xshaydi. Endi xavf nafaqat menga, balki butun vampir oilasiga tahdid solmoqda. Bu taqdirning yomon qismatiga o'xshaydi va bundan ham yomonroq bo'lishi mumkinmidi? Oradan kunlar o'ta boshladi. Mening xayolim tuman ichra adashib yurardi. Men atrofdagilarni sezmasdim. Bitta fikr miyamga bolg'a singari urilib ketdi: "Hammasi men tufayli".

Edvard har tomonlama menga dalda berishga harakat qildi, men esa o'zimni tinchlantirishga muttasil urinardim. Qoq tun yarmida Renesmi to'shagida shirin uxbab yotardi, Edvard ikkimiz esa yonayotgan kamin (G'arb mamlakatlaridagi xona ichida joylashgan o'choq) yoniga o'tirib, olovga tikilgancha bir nimalarni o'ylardik.

- Xavotir olma, hammasi yaxshi bo'ladi. Edvard qo'lini sovuq yonog'imga qo'ydi.

- Bilaman. Men bunga umid qilaman.

Meni diqqat bilan tingla: – Men Karlayning ichki hissiyotlariga ishonaman. Bu Aroning hiyla-nayranglaridan biri ekanligiga ham aminman. U har qanday yo'l bilan bo'lsa ham bizni yo'q qilishga urinadi. Ammo biz kuchliroqmiz. Bella, biz kuchliroqmiz. Agar biz ushbu Bagirraga qarshi kurashishimiz kerak bo'lsa, unda omad ham biz tomonda bo'lishiga ishonchim komil. Bundan tashqari, men Ellisning qobiliyatlariga ishonaman, qolaversa u ushbu maxluqning yomon niyatda ekanligini ham aytgani yo'q. Menga ishon, yaxshi bo'ladi. – Shu so'zlaridan so'ng u marmar lablarini lablarimga bosdi va meni qattiq, ehtiros bilan o'pdi. Men uning quchog'ida eriy boshlaganimni his qildim – aytishim mumkin bo'lgan yagona narsa men senga ishonaman, Edvard. Bu ayni haqiqat. – Va keyin uning qo'lida batamom mumday yumshab, ekinlikni his qildim.

Kunlar shamolday o'ta boshladi. Karlayl, Emmett va Jasper mudofaa rejasini tayyorlashardi. Ular, hatto, har kuni jangning eng kichik tafsilotlarigacha muhokama qilib, tinmay mashq qilar edilar. Jeykob va to'dasi ham mislsiz jangda qatnashishga qaror qilishdi. Ular, har doimgidek, bizning oilamiz xavf ostida bo'lgan paytda chetda tura olishmadi. Oqibatda esa, bo'rilar bilan vampirlar yanada inoqlashib, do'stlashdilar, ya'ni eng yomon dushmanlar eng yaxshi do'stlarga aylangandi. Endi bizning taqdirlarimiz chambarchas bog'liq bo'lib qolgandi. Jeykob va Renesmi rishtalari esa bizning oila va bo'rilar to'dasini yanada yakdillashtirardi.

Ellis har kuni birov halal bermasligi uchun uydan tashqarida vaqt o'tkazar, dushmanni ko'rishga harakat qilar edi. Lekin uning sa'y-harakatlari muvaffaqiyatga erishmadi.

Hayotning xotirjam va baxtli damlari qaytarilmas darajada yo'qoldi. Bir paytlar chiroyli va sokin bo'lgan Kallenlar uyi endi harbiy shtabga o'xshardi. Esmening boshidan kechirayotganlarini ko'rib turardim. U oilasi uchun qo'rqardi. Men boshqa hech kimdan uningdek xavotir ko'rmadim. Agar urush bo'lsa, unda u kimdirga ziyon yetishini bilar edi. Rozali ham bu og'riqni his qildi va chinakam mehribon onasini tinchlantirish uchun har tomonlama harakat qildi.

Belgilangan kunga ikki hafta qoldi. Biz Volturilarning kEllishini umid va hadik bilan kutardik. Kimdan ko'proq qo'rqish kerakligi ham noma'lum edi: barcha vampir avlodlarini yo'q qilishni istagan, boshqarib bo'lmaydigan monstermi yoki bizning qonxo'r "do'st"larimiz?

Ammo Ellisning so'zlari hamma narsani bir zumda o'zgartirib yubordi: "U allaqachon shu yerda..."

Hamma uning nimani nazarda tutayotganini ortiqcha izohlarsiz darrov tushundi.

3-BOB O'LIM KO'ZLARI

Ovqatlanish xonasida o'tkazilgan umumiy yig'ilishda Ellis o'zining qarashlari haqida batafsil gapirib berdi. U Forksning kirish qismida dushmani ko'rganligini aytdi. Oradan yana ancha soatlar o'tdi. Biroz o'ylanib, Kallenlar Volturilarning kEllishini kutishdan foyda yo'q, degan qarorga qildilar. Uchrashuv joyi sifatida bizning beysbol maydonimiz tanlandi. Ajablanarlisi shundaki, bu sohada baxtsizliklar haddan ziyod o'sib boradigan paytda yaxshigina turg'unlik yuz bera boshladi. Maydonning o'zi mening o'limimni orzu qilgani, o'limimga tashna bo'layotgani haqida taassurot paydo bo'ldi. Balki bu shunchaki xurofotdir, ammo har qanday holatda ham ushbu uchrashuvdan yaxshi narsa kutish amrimaxol edi.

Afsuski, mana men yana o'sha (ilk bor Jeyms, Viktoriya va Loran menga tashlanib qolgan) omadsiz o'tloqdaman. Atrofimda menga yaqin kishilarim bor. Bir tomondan, mening sevikli Edvardim mening yelkamga qo'llarini qo'ygancha taskin berayotgan bo'lqa, boshqa tomondan, bo'ritus Jeykob ishonchli tarzda qo'riqlar, mening sevimli qizalog'im bo'ynimga o'ralgancha uning qo'llarida turardi. Bundan baxtli lahzalar yo'qdek tuyuldi, agar biror nima bo'lmasa... Ammo... Biz bu yerda hamma narsani o'lim ko'zları bilan ko'rib turibmiz. Ehtimol, hozir hammamiz o'lamic, hamma narsa boshlanishi bilanoq tugaydi. Ichki tuyg'uyim meni hayratda qoldira boshladi, go'yo bularning barchasi allaqachon sodir bo'lgandek. Ey Xudoyim, bu naqadar baxtli uch oy qanchalar tez o'tdi.

Karayl bizning pozitsiyalarimizni yarim doira bo'yicha taqsimlashni boshladi. Edvard yonimda turib, yelkalarimni mahkam siqib oldi. Bir qo'lim bilan uning beliga o'ralgan edim, boshqa qo'lim bilan esa Renesimni ushladim. U nima bo'layotganini juda yaxshi tushundi va muloyim barmoqlarini yuzimga tekkizib, baxt va ezgulikning kamalak ko'rinishlarini ko'rsatdi va shu bilan meni tinchlanirishga harakat qildi.

Emmett va Jasper xuddi juda muhim beysbol o'yiniga tayyorgarlik ko'rayotgandek harakat qilishardi, ammo endi go'yo sokinlikka o'rinn bo'shatishgandi.

Ellis boshqalarga qaraganda ko'proq tashvishlanar edi, chunki uning tasavvurlari juda xira, quyuq tuman ichidagi kimsadek tushunarsiz bo'lib qolgandi. U faqat ayolning kEllishini ko'rdi, lekin nima sodir bo'lishini ko'a olmadi. Aksiga olib, endi kimdir uning xayollarini o'chirib qo'ygandek edi.

- Bella! Hammasi yaxshi boladi! – dedi Edvard gipnoz qiluvchi ohangda – Menga ishonishing kerak. Yaqinda barcha qiyinchiliklar o'tib ketadi va biz yana baxtli hayot kechiramiz. – Uning ovozi juda iliq va yoqimli, kuchli antibiotik kabi harakat qildi va xayolimni chalg'ita oldi. Men shunchaki qarshilik ko'rsata olmadim.

- Men senga ishonaman, Edvard! Men ishonaman! – Uning ingichka tanasiga yopishib, o'zimni xotirjam his qildim. U esa muloyimlik bilan qo'lini sochlarimdan o'tkazdi va peshonamdan asta o'pib qo'ydi.

- Ko'rasan – bu hali intiqo emas! Hammasi yaxshi boladi. Buni Ellisning xayolida ko'rishim mumkin. Bu jonzot kim bo'lishidan qat'iy nazar, u bizga zarar yetkazishni xohlamaydi. Men bunga aminman.

- U 4 daqiqadan so'ng shu yerda bo'ladi, – Ellis mudofaa pozitsiyasini egallab, qalin o'rmon tomon tikilib qoldi. Boshqalar ham huddi udek holatga kira boshlashdi.

Karlayl atrofga diqqat bilan nazar tashladi: – Xo'sh, ana endi... Barchamizga eng yaxshi tilaklarimni tilayman. Xudo biz bilan birga bo'slin. Atrofdagi hamma narsa bir on muzlab qolgandek tuyulib ketdi. Vaqt go'yo to'xtagandi. Hatto, o'rmondagi daraxtlar ham bargni qimirlatishdan qo'rqb, qotib qolgandek turishardi.

Nihoyat, yevropoid morfologiyasiga mansub yosh ayolning kichkina qiyofasi o'rmon ichra quyosh nurlari bilan ochiq maydonga chiqdi. Uning qadamlari... U qadam tashlaganga qaraganda suzayotganga o'xshar, bamisolli yerdan baland ko'tarilib, bulutdek harakatlanayotganga o'xshardi. Uning har bir harakati shunchalik nafis ediki, hatto nazokatli Ellis ham unga qaraganda nuqsonli tuyilardi. Uning muloyim xususiyatlari ajobtovurligi bilan xayratlantira boshladi. Uning yuqoriga biroz ko'tarilgan ixchamgina burni, qip-qizil lablari va ulkan yonib turgan yashil ko'zları, uning atrofida esa qora yupqa kirpiklari o'ziga nihoyatda yarashgan edi.

Qora qatron kabi sochlari qisqa kesilgan va mototsiklda tez haydashdan keyin yuqoriga va orqaga uchgan kabi g'alati soch turmakda edi. Unda beliga qadar tushib turgan turli iplar o'rın olgan bo'lib, turli tugunchalar bilan bezatilgandi. U jumjimador bo'yinbog'li qora tusdagi charm kostyum kiyib olgan, o'zining ajoyib nozik shakli, nazokatini ifodalar, ammo mushaklari va baquvvat tanasini yaqqol bilintirib, orqa va yelkalarini namoyon qilib turardi. Yelkaning orqa qismidan panterra (qora qolon) shaklidagi tatirovka harakatlanib, og'zini ochib, unga yaqinlashishga jur'at etgan har qanday kimsani burdalab tashlashga tayyor edi. U katta poshnali etik kiyib olgan edi. Qanday qilib u o'rmonli yumshoq yerkarda juda nozik yurishga muvaffaq bo'ldi? Qolaversa, uning qatron tusli qora terisi hamma narsaga yakun yasadi. U yorqin quyoshda millionlab kristallar bilan porlamas, ammo uning o'ziga xos jozibali porlashi bor edi. Uning ko'rinishi bizni tashqi olamdan uzib, o'ziga mahliyo qilib qo'ydi. Biz hammamiz turganimizcha, shunchaki qoyil qolib unga boqib turardik. Shunda birdan, men Rozalidan taralayotgan hasadni his qila boshladim. Ehtimol, u birinchi bor go'zalligi va o'zini tutishi bilan unga soya solgan kimsani uchratgandir. Bu orada qiz quyoshli nurli maydonni kesib o'tdi va bizdan atigi bir necha qadam narida keksa archa daraxtlari soyasida to'xtadi. Uning orqasida esa bo'rilarining uvillagan ovozlari eshitilardi.

Shunday qilib salom, Kallenning buyuk sulolası. – Uning ovozi quloqqa yoqimli tarzda yangradi va musiqa kabi jarangladi – Men sizlarni shunday tasavvur qilardim. Albatta, barchangiz qobiliyatlisizlar. Volturilar qo'rqadigan yagona oila, albatta, mendan tashqari, albatta. – Bu iborada u istehzoli jilmayib, qor kabi oppoq tizilgan tishlarini olib qo'ydi. U, taxminan, 25 yoshlarda edi. Uning yashil, porlab turgan ko'zlari qiziquvchanlik va tushunarsiz quvonchni ifoda etardi. Negadir, g'alati, uning ko'zlari do'stlik va iliqlikni aks ettirardi. Bu ko'zlar shafqatsiz qotilga tegishli bo'lishi mumkin emas edi.

- O'zimni tanishtirishga ijozat bering. Men Bagirraman! Do'stlar uchun faqat Girra. Garchi menda yo'q bo'lsa! – Uning yuzi zararli tabassum bilan porladi va ko'zlari o'zgacha taftli olov bilan porladi.

- Salom, Bagirra! Men Karlayl Kallenman. Bu esa menin oilam: Esme, Rozali, Emmett, Jasper, Ellis, Edvard, Bella va Renesmi. – Karlayl bizlarga bir-bir nazar tashlab, ismlarimizni aytardi hamda so'zida davom etdi: – Va bu bizning do'starimiz – bo'rilar jamoasi.

Ammo Bagirra uning so'zlariga e'tibor bermay, bizlarga diqqat bilan nazar solib, har birimizni o'tkir nigohi bilan o'rganib chiqsa boshladi. "Bu qiziq!" Uning qiziquvchan nigohi Jasperga tikildi. – Men ilgari bunday odamni uchratmaganman. Buni inobatga olish kerak... Ellis esa asta pichirladi va oldinga egildi. Biz hammamiz, shu jumladan, bo'rilar, birgalikda xirillab, atrofni do'stona shovqin bilan to'ldirdik.

- Bu haqda tashvishlanishingiz shart emas, – qiz makkorlik bilan jilmayib qo'ydi. – Men sovg'ani egasiga zarracha zarar yetkazmasdan egalik qilaman va bundan ham ko'proq, men uni o'ldirmayman. Aro aytganidek, bu keksa odam bu yerda sizga ko'p gapirganini bilaman. Ammo keyinroq bu bilan ham shug'ullanamiz. Uning qarashlari endi menga qadaldi.

- Oh! Nesi! Azizam! Uchrashuvimizni juda uzoq kutdim! Qani, kelaqol menga, singiljon! U qizim tomonga qo'llarini uzatdi.

Singiljon! Qiziq, u nega uni bunday chaqiryapti? Qizim bilan uning nima aloqasi bor? Beixtiyor qizimni o'zimga tortdim va qo'rqinchli tarzda irrillardim. Mening orqamda esa bo'rilar uvvos sola boshlashdi. Maydon yana yovvoyi shovqinsuron bilan to'lib-toshdi. Emmett va Jasper bizni o'zlari bilan himoya qilib oldinga egildilar, Rozali esa Renesmani pana qilib, menga qattiq qarab oldinga intildi.

Bagirra baland ovoz bilan kulib yubordi-da, so'ng umumiyligini bilan qo'zg'ala boshladi.

- Bella! Asalim, tinglagin. Men bu yerga opam bilan uchrashish uchun keldim. Ha! Huddi shunday. Bizni sen bilan qonimiz bir, gen jihatdan juda o'xshashmiz. – U mening ko'zlarimdagisi izhorsiz savolga shu tarzda javob berdi. «Men uni o'lik, harakatsiz qo'llaringdan olishim mumkin. Ammo men sizga ham, sizning oilangizga ham zarar yetkazishni xohlamayman va bundan ham ko'proq men singlim aziyat

cheikmasligini istayman. – Bu so'zlar bilan u qo'llarini yanada kengroq olib, men tomonga qadam tashlay boshladidi. Men esa Renesmini bag'rimga yanada qattiqroq bosib, xirillay boshladim.

- Bella! Bagirra Renesmi bilan uchrashishiga ruxsat ber. U unga yomonlik istamaydi. – deb Edvard mening vahimali ko'zlarimga qaradi.

Bu so'zlar meni hayratda qoldirgandi. Mening Edvardim mendan boshimiz uchun kelgan qotilga qizimizni berishimni so'rasaya..! G'azab va umidsizlik tuyg'usi qalbimga quyundek yoprildi. Men nigohim bilan ko'mak uchun panaroq joy qidirardim. Rozali esa bu so'zlar uchun Edvardning tomog'idan ushlab, uni parchalashga tayyor holatda edi. Boshqalar ham uning so'zlariga ishonchhsiz munosabatda bo'lishdi. Men Karlayning ko'zlariga qaradim. Uning nigohi Edvard tomon yo'naltirilgan edi. Keyin Karayl mening ko'zlarimga qaradi va ijobiy alomat sifatida bosh irg'adi.

Edvard chakkamdan asta o'pdi va "Menga ishon!", deb pichirladi. Qanday qilib men unga ishonmasligim mumkin?, lekin qizimni dushman qo'liga bera olarmidim... Endi men o'zimdag'i ikki borliq bilan kurasha boshladim. Nihoyat, qaror qabul qilishda Ellis menga yordam berdi: "Bella, sen bilasan – men senga doim yaqin turaman, biz shu yerdamiz!"

Oxi-oqibat, men taslim bo'ldim. Mening qo'llarim noaniq holda bu mavjudod tomon cho'zildi hamda Renesmi, ajablanib, Bagirraga qo'l uzatdi. Uni yetkazishga ulgurmay, u epchillik bilan mening qo'llarimdan panterranning quchog'iga sakrab o'tdi va bir qo'li bilan bo'ynini mahkam quchoqlab, ikkinchisi bilan uning taftli yonog'iga tegdi.

Bagirra Renesmini mehr bilan quchoqladi va ko'zlarini yumib, uning taassuotlarini ong oqali tomosha qila boshladidi. Maydon sukunatga cho'mdi. Hamma kutgancha qotib turardi. Bu vaqt menga tugamasdek tuyulib ketdi – mening sevimli qizalog'im sayyoradagi eng qudratli, xavfli qotil bilan birga edi.

- Renesmi Bagirraga butun hayotini batafsil ko'rsatishga qaror qildi – Edvard qulog'imga shivirladi va yuzimni muloyimlik bilan silab qo'ydi.

Nihoyat, Bagirra ko'zlarini ochdi va nigohini Karayl tomon burdi.

- Ha... Ko'rayapmanki, Aro sizning miyangizni yaxshigina jilovlagan. Shu bois, men bir vaqtning o'zida bachasiga nuqta qo'ymoqchiman. Biroq mening rejalarim sizning oilangizni yo'q qilish yoki, umuman, sizga zarar yetkazishni o'z ichiga olmaydi. Shunday deya u Renesmini menga uzatdi. – Men bu yerga kichkina Nessi bilan uchrashish va, shu bilan birga, Volturilarni juda qo'rqtgan taniqli oilani ko'rish uchun keldim. Qolganini esa kechki ovqat paytida aytib beraman. Aytgancha, men oddiy insoniy kechki ovqatni o'tkazishga qarshi emasman hamda issiq dush olish zarar qilmaydi. Karayl, men sizdan bir-ikki kun qolishga iltimos qilsam maylimi? – Bu so'zlar bilan u istehzoli jilmayib qo'ydi va javobni kutmasdan davom etdi: – Umid

qilamanki, ular menga oynali va daryo ko'inib tuadigan xonani berishadi. Ha davoqe, cho'milish paytida meni qanday qilib eng ma'qul tarzda o'ldirish kerakligi haqida o'ylashning hojati yo'q! – U Emmett va Jasper tomonga o'ynoqlab qarab qo'ydi – oqibatda, hech kim sizlani oqlolmaydi!

Men Rozalining tishlarini g'ijirlatganini eshitdim.

Karlayl bir qadam oldinga o'tdi va mehmondo'stlik bilan qo'lini bizning uyimiz tomon cho'zdi – Albatta, Bagirra, biz bilan xohlagancha yashashing mumkin!

- Xo'sh, unda men sizni xonada kutib turaman – bu so'zlar bilan u baland sakrab tushdi. Quyoshda tovlanayotgan qora mo'ynali ulkan panterra yerga tushdi. Vaxshatli yashil ko'zlar bizga qarab turardi. Bir lahzadan keyin u bizning ko'zimizga sezilmash tezlik bilan ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yerda esa kiyimlar yoki baland poshnalardan asar ham yo'q edi.

Ular shoshilmasdan uyga qaytishdi. U bilan yana uchrashishdan oldin muhokama qilish va o'ylash uchun juda ko'p narsa bor edi.

- Bu Bagirra juda g'alati ekan – Emmett norozi bo'lib yelkalarini qisdi – U menga yoqmadi.

«U juda g'alati harakat qildi. U biz haqimizda Renesmi ko'rsatganidan ko'ra ko'proq narsani bilishi aniq – Jasper juda ehtiyojkor va ushbu vaziyatdan norozi kayfiyatda edi.

Edvard o'tirgan holda, hozir bo'lganlarning hech biriga qo'shilmay ikkilanib o'taga savol tashladi: – Hayronman, nega u Renesmini o'zining singlisi deb o'ylayapti?

Men umuman tushunmayapman, nega uni uyimizga kiritishimiz kerak? – Rozali g'azab bilan turardi – U biz uchun kim?

Karlayl esa har doimgidek tinch va vazmin edi – Rozali, menimcha, u haqiqatan ham bizga zarar qilmaydi va...

Uning nutqini Ellis to'xtatdi: – U bizga hayotimizni o'zgartiradigan juda muhim narsani aytib beradi. Men nima ekanligini tushunmayapman, lekin men uni tinglashimiz kerak, deb o'ylayman.

- Xo'sh, menimcha, bu uni shunday qoldirishga yana bir sababmi? Agar hech kim bunga qarshi bo'lmasa? – Karlayl atrofiga diqqat bilan razm soldi.

Uyga kirganimizda, Bagirra allaqachon odam qiyofasida divanda o'tirgan edi. U xuddi o'sha charm kostyum va baland poshnali etikda edi. Nima uchun kiyimlar butunligicha qoldi?

Bir lahzadan so'ng, Jeykob uyga odam qiyofasida, uy yaqinidagi butalar ichida oldindan qoldirilgan shortikni kiyib kirib keldi.

- Sen buni qanday qilding? Sen tuslana olasan va aql bovar qilmas tezlik bilan harakatlanar ekansan, eng qizig'i, qanday qilib kiyimlarining yirtmay bunga erisha olasan – Jeykobning ko'zlarida qiziqish alangalanardi.

Bagirra biroz jilmayib qo'ydi. – Bu qobiliyatlar menga onamdan o'tgan, ammo hamma narsa o'z o'mnida bo'lgani ma'qul. Men kechki ovqat paytida barchangizga hammasini aytaman deganman. Endi, aytchi Esme, qaysi xonani egallashim mumkin?

- "Bagirra, sen... Esme so'zini tugatishga ham ulgurmadi.

- Rahmat! Men eng yaxshisini berishingizni bilardim! – Bu so'zlarni ayta turib Bagirra zinadan zinaga uchib chiqardi. – Kechki ovqat mahali uchrashamiz. Taomlaringiz shirin chiqadi, degan umiddaman! – bu so'zlar allaqachon mehmonlar xonasidan kelardi.

- Bu Ellisning uyimizga kelganini eslatyapti – Edvard istehzoli tarzda jilmayib qo'ydi – O'shanda narsalarim garajga tushib qolgandi!

- Edvard! Buning uchun hech qachon meni kechirolmaysanmi endi? Bilasanmi, menga o'sha xona juda yoqqandi! Ellis kichkina qo'lini uning bo'yniga qo'yib, yuzidan o'pib qo'ydi.

Mehmonxonadan hamma o'z ishlari bilan tarqala boshladi. Esme va Karlayl kechki ovqatni tayyorlashga kirishdilar. Rozali "chaqirilmagan mushuk" uchun ovqat tayyorlashni xo'rlik deb bildi va Ellisni qo'lting'idan ushlab, bayramona kechki ovqatga kiyim tanlash uchun xonasiga kirib ketdi. Uning rashkchi tabiatи uyda raqobatchining paydo bo'lishi bilan yanada jilvalana boshlagandi. Emmett va Jasper zinapoyada navbatchilik qilishardi. Edvard va men Renesmini yotqizishga bordik.

- Edvard! Kim u? Uning borligi meni titroqqa solyapti.

U muloyim jilmayib, qo'llarimni beliga o'rab oldi: – U biz bilan jang qilmaydi. U bizning dushmanimiz emas. Hammasi yaxshi bo'ladi. U bizga nima demoqchi ekanligini bilmayman, lekin bu juda muhim narsa. Kel, oshxonaga kiramiz. Renesmi allaqachon uqlab qoldi, Bagirra esa tushish taraddudini ko'rmoqda.

4-BOB O'TMISH

Edvard ikkimiz dasturxonga o'tirganimizda, butun oila allaqachon yig'ilgan edi. Jeykob ham stolga o'tirdi.

- Qiziq, bu mushukcha bizga nima demoqchi? – Emmett kinoyali jilmaydi.

- Men sizga juda ko'p qiziqarli narsalarni aytib beraman! Buning uchun menin so'zimni tinglang! – eshik oldida Bagirraning nozik qiyofasi paydo bo'ldi. Sochlari tik, terilarida lavanta va gul yog'i hidi bor edi. U asta-sekin stol atrofida aylanib yurib, bizning yuzlarimizni ko'rish uchun markaziy sahnaga chiqdi.

- Xo'sh, kechki ovqatga nima bor? Men juda ochman! – uning nigohi Rozali tomon yo'naldi va lablariga biroz tabassum yugurdi.

- Hatto bu haqda o'ylamang ham! Men "mushuk" va "hovli iti"ga xizmat qilmayman! – Rozali Jeykobga g'arazli qarsh bilan boqdi va keyin mardona burilib ketdi.

- Rozali! – g'azablangan Esme stoldan sakrab tushdi va tayyorlangan kechki ovqat uchun oshxona stoliga bordi.

Bir lahzadan so'ng, u darrov Bagirraning orqasida turib, stolga bir tarelka katlet va salat qo'yib, oldiga qo'ydi. Xuddi shu tarzda, yegulik solingan tarelka Jeykobning oldida ham paydo bo'ldi.

- Sizda bir qadah qizil vino topiladimi? – Bagirra yig'ilganlarning hammasiga diqqat bilan nazar solib turardi.

- Ha! Albatta! Karlayl mohirlik bilan stakancha olib, unga vino quyib to'ldirdi.

– Marhamat! Bu 1888-yilgi hosildan. Italiyadan kelgan, maxsus. Men uni tayyorlashda shaxsan o'zim qatnashganman. O'ylaymanki, bu senga yoqadi! – shu so'zлами aytib, u Bagirraning oldiga bir stakan qizil suyuqlik qo'ydi va o'z o'rniga o'tirdi.

- Menimcha, hammamizni entiktirgan suhbatga kirishish vaqtি keldi! – Emmetning yuzida sabrsizlik paydo bo'lди.

Bagirra beparvolik bilan mayda bo'lakchani yeb, ichimligini ichib bo'lgandan so'ng, Emmetning ko'zlariga tikildi. Keyin u atrofdagilarga nazar tashladi. Uning harakatlari silliq va nafis ediki, shu bilan birga, unda panterranning yovvoyi hislari sezilib turardi. U haqiqatan ham odam qiyofasidagi mushukka o'xshardi.

Xo'sh, men bu voqeani aytib berish u yoqda tursin, siz bilan qolish rejalarimning bir qismi emasligidan boshlayman. Ammo Renesmi menga ko'p narsani ko'rsatdi va menin yordamimga loyiq ekanligingizga ishontirdi.

- Yordam?! – Ajablanganidan Emmettning ko'zlar kattalashib, go'yo tangadek-tangadek bo'lib ko'rini ketdi.

- Ha! Aynan, yordam! Ammo hammasi tartib bilan, albatta. Ehtimol, men hammasini boshidan boshlarman.

- Biz seni diqqat bilan tinglayapmiz, Bagirra. – Karlayl uning nimadir demoqchi ekanligini bilganday, unga mehribon va ma'noli nigoh bilan qaradi.

- Otam vampir edi – uning qarashlari g'amgin va xira bo'lib qoldi, go'yo u o'sha damlarga qaytgandek mahzunlasha boshladi. Insonlik paytida u olim bo'lgan va Rossiyada yashagan!

- Ruslarmi? Bilardim, ularsiz bo'lmasligini! - Emmet ko'zlarini yumdi...

- Ha. U Rossiyada yashagan va mening tomirlarimda ruslar qoni oqmoqda – uning ko'zlar gipnoz qiluvchi nur bilan chaqnadi. – Ammo gap u yerda ham emas. Shunday qilib, hammasi quyidagicha... Tasodif tufayli va, ehtimol, omadsizlik natijasida otam vampirga aylanib qoldi. Ammo bu uning ilmiy faoliyatini to'xtatmadni va u o'z ishini davom ettira boshladi. U mehribon odam edi, shu bois vampirga aylansa-da, odamlarni o'dira olmadi. Oqibatda, u vegetarian bo'lishga qaror qildi. Uning ilmiy faoliyati saraton va boshqa dahshatli kasalliklarga davo izlashdan iborat edi. Vaqt o'tishi bilan boshqa vampirlar unga qo'shilishdi, negaki ular ham monster (qotil maxluq) bo'lishni xohlamay, sokin hayot uchun vegetarian bo'lishni tanlashdi. Dastlabki vegetarianlar oilasi – Vergillar shunday tashkil topgandi. Otamning ismi Mixail Vergilyev bo'lib, u o'z nomi ostida 9 nafar vampir, ya'ni erkak-u ayollarni birlashtirdi. U qanday qilib ular Tayga (Rossiyaning Sibir qismidagi ignabargli o'rmonlar)da joylashib, katta uy qurbanliklari va u yerda sivilizatsiyadan yiroq bo'lganlari haqida gapirib berardi. Otam o'shanda ham ilm-fan bilan shug'ullanishni tashlab qo'yagan. Sovuq urush davrida oilasi bilan Sovet Ittifoqidan ketishga majbur bo'lishgan. Vergillarning ba'zilari esa vafot etdi. Otam hayotining bu qismi haqida gapireshni yoqtirmasdi, shuning uchun men bu lahzalar haqida juda oz tushunchaga egaman, xolos. Men u tirik qolgan oila a'zolari bilan Hindistonga qochib ketganini va hamma narsani shu yerda qaytadan boshlaganini bilaman. U oilasi bilan o'rmonning ichkarisida, odamlarning ko'zidan yiroqda hayot kechira boshlashgan. Ammo tez orada Hindistonning qashshoq qishloqlari bo'ylab g'ayritabiyy "oq odamlar"ning katta oilasi o'rmonning eng qalin joyidagi ulkan uyga joylashib olganligi haqidagi mish-mishlar tarqala boshladi. Taygada yiliga 11 oy davomida qor erimas, shu sababli vampirlaning terisi tabiiydek ko'rinaldi. Hindiston aholisi uchun esa ular g'ayrioddiy ko'rinishga ega edilar, natijada ularni "oq odamlar" deb atay boshlashgan. O'sha yillarda Hindistonning qashshoq qishloqlari aholisi ochlikdan va dahshatli kasalliklardan o'layotgan edi. Ular shunchaki ochiq osmon ostida jon taslim qilishardi. Vergillar oilasi ularga qo'llaridan kelgancha yordam berishar, otam o'rmonda kasalxonani ochib, kasallarni davolar edi.

Yillar o'tar, yana ko'plab vampirlar ularning oilasiga muttasil qo'shilib borardi. Vergillar oilasi shu tariqa anchagina katta klanga aylandi. Mahalliy aholi esa "oq odamlar" hech qachon daraxtlar soyasidan chiqmasligi va qarimasligiga deyarli ahamiyat berishmagan. Ular haqida ko'plab afsonalar yarala boshlandi. Ularga ko'ra, otamning oilasi odamlarni qutqarish uchun Xudo tomonidan yerga yuborilgan farishtalar emish.

Bir kuni bir kampir otamning kasalxonasisiga keladi. Uning uyi o'rmon ichkaisidagi boshqa qishloqlardan uzoqda joylashgan kichik kulba edi. Uning aytishicha, kampirning nabirasi og'ir kasal bo'lib, otamdan yordam so'rab yolvorgan. Mahalliy aholi otam Mixailni o'sha aholi manzilgohiga bormaslikka undashardi. U haqida dahshatli mish-mishlar tarqalgan bo'lib, go'yo u yerda yovuz ruhlar yashar va ular yovvoyi mushuklarning qiyofasiga kirib olisharkan. – Bagirraning ko'zlarida shu'la porladi va lablariga ozgina tabassum yugurdi. – Ammo, vampirlarning yer yuzida dushmani yo'q, hech bo'limganda otam shunday deb o'ylardi va shuning uchun u ikkilanmasdan keksa ayolning orqasidan ikki ukasini olib ketdi. Yo'lda ayol ularga Vergillaning kimligini bilishini aytibgan hamda bo'rilar oilasi – mushuklar (panterralar nazarda tutilgan) – Dantey haqida nimalardir hikoya qilardi. Ushbu klanning barcha a'zolari tug'iliboq mushukka aylanish in'omiga ega bo'lishlarini ta'kidlagan. Ushbu in'om asrlar davomida ajdoddan avlodga o'tib kelardi. Hech kim yangi tug'ilgan chaqaloq qanday mushukka aylanishini bilmagan. Ularning aytishicha, hayvonning ruhi tanasini o'zi tanlaydi. Shuningdek, u taxminan, 50 yil oldin o'z mamlakatlarida vampirlarning paydo bo'lishi haqida gapira boshladi. O'sha uchrashuv katta jang bilan yakun topgan va har ikki tomon ham katta yo'qotishlarga duch kelgandi. Ushbu voqeadan keyin ularning oilasi haqida bo'limg'ur mish-mishlar tarqalgan. O'shandan beri Dantey Vergil oilasi kelguniga qadar vampirlar bilan uchrashmagan edi. Ayni paytda esa bu keksa ayol vampirlardan yordam so'rab murojaat qilishga tuyassar bo'lgandi, chunki uning yagona nabirasi ikki haftadan beri yotoqdan turmay yotardi.

Ular manzilgohga kirganlarida, jirkanch va badbo'y hid burunga urilganini sezishadi. Bu hid unga notanish edi va shu tarzda otam o'sha yerda birinchi marta bo'rilar bilan uchrashadi. Hudud aholisi esa tashrif buyurgan vampirlarni ko'rish uchun tashqariga oshiqishardi. Uylar yaqinida ulkan yo'lbarslar, silovsinlar, leopardlar, pumalar aylanib yurar, eng katta uyning yonida esa ulkan sher o'tirardi. Kampir otamni va akalarini uning oldiga olib keldi. Shu onda arslon qirq yoshlardagi uzun bo'yli, baquvvat muskulli odam qiyofasiga kiradi. U boshliq sifatida peshvoz chiqib, ularga manzilgohga ruxsat beradi. Keyin ular uzun, qora sochlari va yashil ko'zlarini bor yosh, chiroyli qizning deyarli jonsiz tanasini joylashgan kichkina va xaroba kulbagi qarab yo'l olishadi. – Bagirraning yuzi muloyim va mehribon bo'lib qoldi – Vergil uning vabo ekanligini aytadi. Kampirning tushuntirishicha, odatda,

ularning oila a'zolari hayvon tanasidagi barcha kasalliklarga duchor bo'lishgan, ammo neverasi shu qadar kuchsiz ediki, hatto tuslana olmas edi. Shunda kampir Vergilning oldida tiz cho'kib, yolg'iz bolasini qutqarishni iltimos qiladi. Keyin esa Vegil vampirlik imkoniyatidan foydalanib, uni hayotga qaytaradi. Olesiya tezda o'ziga keladi. Bu o'sha qizning ismi bo'lib, u mening onam edi. – Shu so'zdan keyin Bagirra o'zining hikoyasini to'xtatdi va atrofga qiziqish bilan qaray boshladi.

- Demak, afsonalarda haqiqatn mujassam va sen haqiqatan ham yarim bo'ri, yarim vampirmisan?

- Ha. Huddi shunday. Men sening qizing kabi ikki naslliman! – Bu so'zlarni u Renesmi uxlayotgan xonaga qarata aytardi.

- Ammo Renesmi yarim odam! – Edvard ajablanib qoshlarini ko'tardi.

- Sen qattiq adashasan! Bella, sen qadimgi bo'rilar turidan kelib chiqqanligingni bilasanmi? Onamning oilasi – Danteylarga mansubsan!

Bu so'zlar miyamda aks-sado berardi: Men bo'rilar oilasiga tegishliman... Bu bo'lishi mumkin emas. Bu shunchaki mumkin emas! So'zlar tomog'imga tiqila boshladi – men... onam menga Hindistondan Amerikaga ko'chib kelgan buyuk buvim haqida gapirib bergandi. Ammo bu uzoq o'tmishga aloqador bo'lib, u voqealar menga deyarli mavhumday edi, ulaga cho'pchakdek qarardim.

- Vaqt muhim emas! Demak, hammasi o'shanday. Sening ibtidoying Hindistonga borib taqaladi. Dantey oilasiga. Sening ajdoding bo'l mish buving oddiy odamga bo'lган taqilangan muhabbat uchun oiladan quvilgandi. Ular Amerikaga qochib ketishlari kerak edi. Ushbu xiyonat uchun jazo o'zgara olish va tuslanish in'omini yo'qotish edi. Ammo shunda ham baribir bo'ri genlari unda qolib, nasldan naslga o'taveradi. Aroning xayollari tubida men sendagi bo'ri klanini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. U hatto mening ko'zlarimni ochganiga shubha ham qilmadi. – U menga baho bergandek qarardi. - Sening insonlik hayotingda bu xususiyatlar juda aniq ifoda etilgandi. Shuning uchun, sen vampirga aylanib, tuslanishga osongina dosh berding va o'zingni boshqa biron kim boshqara olmaydigan qilib qalqon hosil qila olding. Chunki hayvonning genlari allaqachon senga singib ketgan va sening bir qismingga aylanib ulgurgandi.

- Shunday qilib, sen hayolni o'qiy olasanmi? – Men undan nima so'rashni bilolmay qolgandim, miyyamda tartibsizlik hukm surardi.

- Ha, albatta. – Bagirra salgina jilmayib, ko'zlarimga tikildi – Men har qanday jonzotning fikrlarini istagan masofadan o'qiy olaman, shunchaki diqqatni jamlashim kerak. Ushbu in'om menda yetarlicha rivojlangan. Men juda ko'p narsani qila olaman. Ammo hozir bu asosiy narsa emas. Asosiysi, Bella, sening qizing tuslanuvchidi. Huddi men kabi va bizning taqdirimiz o'xshash. Buning sababini tushuntirib beraman.

- Bu bo'lishi mumkin emas! Men bo'ritusmanmi?

- Mumkin, Bella! Vampirga aylanib, sen ushbu genlarni butunlay yo'qotding, ammo ular Renesmida haligacha saqlanib qolgan. Men hikoyamdan biroz chalg'idi, chamasi. Menimcha davom etish vaqtি keldi. – U jiddiy qiyofaga qaytdi va uning fikrlari yana uzoq o'tmishga qaytdi.

- Shunday qilib, Vergil va Olesiya bir-birini sevib qolishadi. Olesiya nihoyatda chiroyli edi. U qoplon qiyofasini olgandi. Inson qiyofasida esa uning go'zalligi tengsiz edi. Uning bir qarashidan to'xtagan yuraklar urib yuborardi.

- Demak, u senning otangni qo'lga kiritdi, biz bo'rilar bunday ishni qanday qilishimiz mumkin? - Jeykobning ko'zlarini qiziqishga to'lib toshgandi.

Bagirra tahdidnamo jilmayib qo'ydida javob berdi – Hech qanday! Bu bema'nilik! Dantey oddiy odamlar singari sevib qolgandi!

Jeykob ma'yus bo'lib, ko'zlarini olib qochdi.

- Xullas, ota-onamning nikohi bo'ri va vampirlarni bitta katta oilaga birlashtirgan ajoyib klan edi. Ota-onam pravoslav cherkovida turmush qurishdi va men bu sevgi mevasi sifatida dunyoga keldim. Onamning tug'rugi senikidan ancha oson kechgandi, Bella. Axir, bo'ritusning tanasi odamnikidan yuzlab marta kuchli bo'ladi. Ammo xuddi o'sha bo'ritus genlari o'sha paytda omon qolishingizga yordam bergandi.

Bizning oilamiz kengaydi va mustahkamlandi, qolaversa yanada qudratlil bo'ldi. Uning shuhrati butun dunyoni larzaga sola boshladi. Men sevgi va g'amxo'rlik bilan o'ralgan, bo'ritus va vampirlarning qurshovida baxtli bola sifatida o'sganman. Onamdan men qora panterra sifatida tuslanish in'omini olgandim. Dantey oilasida panterralar juda kam uchrardi. Ular har 100 yilda bir marta dunyoga kelar, katta jismoniy va ma'naviy kuchlarga ega edi. Vampir genlari bilan tuslanuvchilar chatishgach men shunchaki noyob mavjudodga aylangandim. Oqsoqollar men uchun katta keljakni bashorat qilishdi. Bundan tashqari, onam meni qatron (qora) rang bilan mukofotladi, buning natijasida men ochiq havoda ham yashirmayman, mushukning ko'zlar, tusim... huddi jonli qalbi borlar kabi. Aytgancha, Jeykob! Bizning bo'rituslar oilasi sizlarnikiga qaraganda ancha mukammalroq. Biz yirtqich hayvon qiyofasini xuddi siz kabi ichkaridan emas, balki tashqaridan, o'zimizni qobiq bilan qoplagan holda olamiz. Shuning uchun, mening kiyimlarim butunligicha qolmoqda. – U qordek oppoq tishlarini ochib, yonib turgan yashil ko'zlarini chaqnatib, tahdidomuz jilmayib qo'ydi.

- Nega ko'zlarining mushuknikiga o'xshaydi? Ya'ni, demoqchimanki, buni qanday izohlaysan? – Men uning odamnikidan farqlarini tushuna olmasdim.

- Bella! Sen mening ko'zlarimni g'azabda yoki yorqin quyoshda yaxshi ko'rmading yoki och bo'lganimda...

- Men ko'ryapman. – Ellis ko'zlarini yumdi. U kelajakka nazar tashlardi – Ko'zlarining... qorachig'i mushuknikiday ingichka. Ular qorong'ida gipnoz qiluvchi

fosforik nur bilan yonadi. Men sening qon ichishingizni ham ko'ryapman – Sen vampirsan! Ellis nigohini Bagirraga qaratdi.

- Albatta! Men otamdan qonga bo'lgan tashnalikni olganman. U oddiy vampirnikidan ancha zaif, men esa sizga qaraganda kamroq ov qilaman. Bundan tashqari, vaqtı-vaqtı bilan menga oddiy ovqatlanish va uxlash ham kerak bo'ladi – shu so'zlarni ayta turib u yana bir bo'lak go'shtni yutib yubordi. – Ammo, shuningdek, otam menga cheksiz o'rganish qobiliyatining g'ayrioddiiy in'omni ham bergen, ya'ni boshqa vampirdan ko'rgan har qanday in'omni o'rganib olishim mumkin. Men bolaligimda bu qobiliyatim juda zaif akslanar edi, lekin o'sha paytda ham men o'zimda juda katta kuchni his qilardim. Ota-onam mendan quvonishardi. Men chinakam baxtli edim... Afsuski, bu baxt uzoqqa cho'zilmadi – Uning ko'zlar xira tortdi, ko'zlaridagi yorug'lik so'ndi.

Volturiylarga bizning buyuk qudratli oila va noyob bola haqidagi mish-mishlar yetib bordi. – Bu so'zlar bilan uning bo'g'zidan xirillagan tovush kela boshladı – Albatta, ular biz tomonga, bizni yo'q qilish uchun kEllishdi. Otam va bizning butun oilamiz sirlarni saqlamaganlikda, bo'rilar bilan fitna uyushtirganlikda va vampirlar ustida bemani tajribalarni o'tkazganlikda aybladilar... – uning ovozi qattiq va g'azablangan, qo'llari mushtga bo'lib yumilgan va ko'zlar g'azabga to'lgandi.

- Ey Xudo! Bagirra! Ular sening ota-onangizni o'ldirdilar! Bejiz o'ldirdilar! Esmaning ko'zlar hamdardlik va og'riqqa to'la edi.

- Ha. – Bagirra kuch to'plab, biroz to'xtab turdi, uning ko'zlaridan yosh to'kildi – Ular mening butun oilamni qirib tashlashdi, – uning so'zlarida shunchalik azob va achchiq bor ediki... – Volturiylar mening oilamdan qo'rkishard, chunki biz ulardan kuchliroq edik va ularning soni biznikidan kam edi. Ammo ular bizni ayyorlik bilan mahf etishdi. Vampirlar va bo'rituslar o'shanda yelkama-yelka kurashgandi. Ammo jang oldindan hal qilingan edi. Onam meni yashirdi, mana bu medalyonni bo'yninga bog'lab qo'ydi – menga bo'yniga osilgan qalin charm tasmasdagi kumush haykalchani ko'rsatdi – so'ng menga qochishim lozimligini aytdi. Bu medalyon ota-onamdan qolgan yagona yodgorlik. – U dumalayotgan ko'z yosolarini to'xtatish uchun ko'zlarini yumdi. Tanam tushunarsiz og'riq bilan ichkariga tortilardi. Men endi bu qizni dushman sifatida ko'rmasdim. Men unga qandaydir tarzda yordam berishni xohlay boshladim.

O'zini qo'lga olib Bagirra hikoyasini davom ettira boshladı.

- Men panterraga aylandim va yugurdim, yugurdim, yugurdim... batamom charchagunimga qadar... Yomg'irdan ho'l yerga yiqildim va zulmat qariga tushdim. U yerda qancha yotganimni ham bilmayman, lekin uyg'onganimda tong yorishgan edi. Men oyoqqa turdim va turarjoy, ya'ni uyga qaytdim, lekin u yerda hech kim meni kutib turmasdi... Men tutun chiqib yotgan qishloqqa kirdim. Uylarning faqat yonib ketgan xarobalari qolgandi. Hech kim tirik qolmagan. – U Karlaylning ko'ziga qaradi

– men kollar ichra qishloqni aylanardim. Ruhimda bo'shliq paydo bo'lgandi. Men og'riq sezmasdim. Ruhim oilam bilan ketib, vujudim boshpana izlab, yerdagi arvohday aylanib yurardi. Keyin men faqat bitta narsani – o'lishni xohlardim. Oradan oylar o'tdi. Men ov qilmadim, yemadim, faqat o'lishimni kutardim. Ammo bu oson emasdi... Ayniqsa, boqiy hayot kechiruvchilardan bo'lsang... Oh! Hamma narsa qaytadan bo'lsaydi.... Agar men o'sha paytda qochmaganimda... Qaniydi men jang qilsam edi! – ko'zlaridan ikki jur'atsiz yosh uning yonoqlariga tushdi. – Ammo men endi tahlikada edim...

- Bagirra. Bu hech narsani o'zgartirmasdi. – Uning yonida o'tirgan Karlayl dalda berib yelkasini silab qo'ydi. – Sen shunchaki bola bo'lgansan. Ular seni ham yo'q qilishardi. Sen ham buni bilasan. O'zingni ayblama. – Men ham uni quchoqlab, unga tasalli bermoqchi edim. U hozir juda himoyasiz ko'rinaridi.

Bir marta, butunlay charchaganimdan, o'lim meni olib ketish uchun kelganiga umid qilib, ko'zlarimni yumib, o'zimdan ketdim. Men tush ko'rdim. Unda onam va otam oldimda turishardi. Ularning ortlarida esa butun oilamiz turardi. Ular menga yashashim kerakligini aytishdi. Men Dantey klanining yagona avlodi edim... Vergil klanining yagona avlodi... Agar men o'lsam, bu ikki buyuk sulolaning intiqosi bo'lardi. Shuning uchun, qasos olish va naslimni davom ettirish uchun yashashim, tirik qolishim kerak edi. Volturiylarni yo'q qilishim darkor edi. Ushbu qora dog'ni yer yuzidan yuvib tashlash vaqtি keldi! Shundagina men bu dunyoni xotirjam tark eta olaman. Shundagina ruhim boqiy tinchlik topadi. Edvard. Vampirning ruhi bor. Sen menga ishonishing mumkin. Otamning ruhi jannatga ketgan. U Xudoning rahmatiga loyiq edi. – Edvard tasdiq tariqasida bosh irg'adi.

Uyg'onanimdan so'ng ko'rganimdan vujudim kuch va quvvatga to'ldi, qalbimda qasos va nafrat paydo bo'ldi. Men dahshatli qasos rejasini tayyorlay boshladim. – Bagirraning ko'zları maftunkor yashil shu'ladek porlab ketdi. – O'shanda 6 yoshda edim. Men hech narsani o'zgartira olmaydigan darajada zaif edim. Men buni endi tushunyapman. Ushbu tasavvur meni oldinga harakatlanishga majbur qildi. Yigirma yil davomida men turli xil qobiliyatlarini o'rganib, dunyo bo'ylab kezib chiqdim. Meni faqat nafrat va qasos olish istagi oldinga chorlardi. Mening asosiy in'om – o'rganish qobiliyati edi. Men boshqa vampirlarning g'ayrioddiy qobiliyatlaridan o'zimga singdira olardim. Ammo barcha ko'nikmalar ko'proq shug'ullanishni talab qiladi. Ushbu qobiliyatlarimdan biri boshqalarning fikrlarini masofadan o'qiy olishimdir. Uning yordami bilan har qanday odamning fikrini ochiq kitob kabi o'qiy olaman.

- Bagirra. O'zingning qobiliyatlarining haqida so'zlab ber. – Karlayning ko'zlarida chinakam qiziqish aks etardi.

- Men ularning chegarasini aniq bilmayman. Men kuchli va amalda daxlsizman. Dunyo bo'ylab sayohat qilib, men ko'plab qiziqarli ko'nikmalarga ega bo'ldim.

Ulardan ba'zilari yaxshi rivojlangan, ba'zilari jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Aytgancha, men anchagina vampirlarni yo'q qildim. Ammo ular shunchaki ruhsiz mavjudotlar. Shuning uchun men haqimda bunday mish-mishlar tarqalgan – u afsus bilan jilmaydi.

Hozirgina uning ko'zlaridagi ifodani tushundim. Og'riq. Alamdan yonayotgan dahshatli og'riq ularda aks etardi.

- Sening tatirovkang nimani anglatadi? – Edvard qora panterra tasvirlangan yelkasiga bir qarab qo'ydi.

- Bu hayvonning belgisi. Danteylar oilasidagi barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ular kimga aylana olinishini bilib olingandan keyin tushirilardi. Endi ushbu belgi mendagina qolgan va Volturga bu juda qimmatga tushadi – Uning ko'zlarida qasos uchun tashnalik yonardi. U ruhini tiklab oldi.

- Renesmi haqida nima deyish mumkin? Axir, agar men sening oilangga tegishli bo'lsmam, u ham bu belgini olishi kerakmi?

- Ushbu belgini faqat bo'rilar oilasida tug'ilgan kimsa egallashga loyiq. Sening buyuk buving Bella oiladan quvilgan hamda shu bilan siz va Nessini ushbu imtiyozdan mahrum qilgan. Ammo bo'ri genini olib bo'lmaydi, shuning uchun men uni singlim deb atadim.

Qobiliyatlarimga kelsak, men ularning chegarasini bilmayman. Men doimo shug'ullanaman... Qasos olish uchun tayyorgarlik ko'raman... Aro mening niyatlarimni bilib qolib, sizlarga yordam berib, mening rejalarimni buzishga qaror qildi.

Aro seni biz bilan birga yo'q qilmoqchi bo'ldimi? – Karlayl bu gapdan hayratga tushdi.

- Uning bitta dahshatli dushmani bor edi – men uning o'limiga chanqoq bo'lган vampirman. Ammo, kutilmaganda, yana bir xavf paydo bo'ldi – iqtidorli Kallen oilasi, shu jumladan, men kabi yarim nasl. U Nessining tomirlarida odam emas, balki bo'ri qoni oqishini bilmasa ham, u hali ham jangni yo'qotishdan qo'rqib, jangga qo'shilishga jur'at etolmaydi. Keyin uning xayoliga yorqin g'oya keldi! – Bagirra dushmanlikdan jilmayib qo'ydi – siz meni o'ldirasiz va u "o'z vaqtida kelgan yordam" niqobi ostida sizlarni yo'q qiladi. Ajoyib, shunday emasmi? Ammo u men uning fikrlarini har qanday masofada o'qiganimni va hech qanday qalqon menga ta'sir qilmasligini hisobga olmadi. Sizlar meni umuman o'ldirolmaysiz.

- Ammo u bizni qanday mag'lub qiladi? – Emmettning ko'zlarida ishonchsizlik paydo bo'ldi – O'tgan safar u bizga hujum qilishga jur'at etolmagandi. O'shandan beri biror narsa o'zgarganmi?

- Bu yaxshi savol, Emmett. Ha. O'shandan beri ko'p narsa o'zgardi. Aro noyob in'om bilan yosh vampirni qo'lga tushirdi. Uning in'omi – har qanday masofada noyob qobiliyatga ega odamlarni ko'rishdir...

- Ammo u allaqachon bor-ku... Karlayl bu iborani tugatishga ulgurmadi.

- Yo'q! Bu shunchaki emas. Ushbu vampirning imkoniyatlari juda katta. U yerning hamma burchaklaridagi odamlarning qobiliyatlarini ko'ra oladi. Uning in'omi juda kuchli. Aro yangi ahd armiyasini tuzishga kirishdi. Iqtidorli va daxlsiz buyuk armiya, bu uning to'liq izmida bo'ladi.

- Aro e'tiqodlilarni yaratadimi? – Karlayl eshitganlariga ishonolmasdi.

- Ha! Albatta, bu muhofaza qilinadigan sir. Ammo u mendan hech narsani yashira olmaydi. Har bir yangi a'zoga ma'lum bir qobiliyat berilgan. Birgalikda ular daxlsizdir. Ularga qarshi sizning imkoniyatingiz yetmaydi. Uning armiyasi to'liq yaratilgunga qadar uning Volturiylari juda oz qolgandi. – Keyin uning nigohi chalg'idi. U old eshikka qaradi – Salom, singlim! Kechirasani, hikoyalarim bilan uxlashingga yo'l qo'ymabman. – Renesmi eshik oldida turib, hayratomuz ko'zlar bilan Bagirraga qarardi. Bir lahzadan so'ng, u allaqachon xushchaqchaqlik bilan Bagirraning tizzasida paydo bo'ldi. Bagirra uni muloyimlik bilan quchoqlab, pushti yuzidan o'pdi. Bu qizning ko'zlarida juda iliqlik, sevgi va g'amxo'rlik bor edi! Men endi qizim uchun qo'rmas edim. Qo'rquv o'z-o'zidan yo'qoldi. Men Renesmi yaxshi qo'llarda va yaxshi himoyalanganligini bilardim.

- U mening butun hikoyamni eshitdi va hamma narsani biladi – Bagirra menga buni ko'p aytardi – bizning taqdirimiz bir-biriga o'xshaydi. Volturi bilan so'nggi uchrashuvda sen Bella Renesmi uchun soxta hujjatlar bilan, medalyoningni esdalikka berib, qutqarish umidida uni Jeykobga ishonib topshirding. Siz o'sha paytda g'alabani qo'lga kiritdingiz.

Ammo bu uzoq davom etmaydi. Bu bilan siz faqat muqarrar ishni kechiktirdingiz, xolos. Yaqinda Volturiylar yana keladi va mening aralashuvimsiz sizlar yutqazasiz. Nessy bu dunyoda yolg'iz qoladi va uning qalbida yonayotgan og'riq va nafratdan boshqa hech narsa bo'lmaydi. U majbur bo'ladi, abadiy azoblanadi. Menga ishonishingiz mumkin. Siz menga ishonishingiz mumkin. – Bu so'zlari ayta turib u Renesmini yanada qattiqroq quchoqlardi – Ammo men bunga yo'l qo'yayman. Mening qismatim yana takrorlanishiga yo'l qo'yayman. Aro armiyasi allaqachon yetarlicha kuch to'plab bo'lgan. Nima uchun u sizning oldingizga kamchilik kishi yoki deyarli himoyasiz kelgan deb o'ylaysiz? Uning sizga muhabbatni va ishonchi bo'lganligi uchunmi? – ishonchsizlikdan Bagirraning ko'zlar qisilib qoldi – Yo'q! U ahmoq emas. Aro ishonchli himoyaga ega edi, siz buni sezmadningiz. Yoping'ichdagi vampirlardan biri Aroga miyangizni boshqarishga ruhiy jihatdan yordam berib, ishonch aurasini yaratdi, ikkinchisi esa Edvardning ongni o'qishiga yo'l qo'yadi. Shuning uchun u faqat Aro xohlagan narsalarni o'qiy oldi, xolos. Natijada, siz uni osonlikcha qabul qildingiz. O'zlari Volturiylar qo'shinlari bilan uyingizga kEllishlariga qaror qilishdi va meni yo'q qilishni rejalaشتirishdi! Ahmoqlar! – uning

ovozi ko'tarildi – Ular sizni atroflicha tekshirib chiqishdi! Volturiylar uyingizga kelib sizni yo'q qiladi! Mening oilam singari qirib tashlaydi! – u baqira ketdi.

Yig'ilganlarning barchasi Bagirraga tobora ko'proq ishonch bildirib, diqqat bilan tinglardilar. Hatto Rozaliyaning shubhali qarashlari ham g'oyib bo'ldi.

- Sen nima taklif qilmoqchisan, Bagirra? – Jeykob sabrsizlik bilan stulga o'tirdi – urush uchun ular bilan yuzlashishnimi?

Agar sizlar Volturiyga qarshi jangga boradigan bo'lsangiz, unda barchangiz muqarrar ravishda o'lasiz. Men ham bu jangga tayyor emasman. Mening rejalarim Volturiylarning barcha klanini yo'q qilishni o'z ichiga oladi. Lekin hozir menda vaqt yo'q. Agar men ketsam, unda sizlar halok bo'lasiz. Men bunga yo'l qo'yolmayman. Ular mendan kuchliroq, ammo men tavakkal qilishga tayyorman. Kutish uchun vaqt yo'q, shunchaki yo'q.

- Nima qilishni taklif qilasan? Jasper Bagirraga katta qiziqish bilan nazar tashladi.

- Men sizlarni yashiraman va o'zim Italiyaga borib, nima bo'lishini bilib olaman. Umid qilamanki , mening kuchim va ko'nikmalarim ishni tugatish uchun yetarli bo'ladi.

- Ammo bu aqlsizlik! – Karlayl stoldan turdi – Bagirra! Bagirra, biz sening o'lishingizga yo'l qo'yaymiz, seni xavfga qo'yaymiz. Bu adolatdan emas.

- Ha! Biz ham kurashamiz! Hamda buni Volturiylarga isbotlab qo'yamiz! Emmett sabrsizlik bilan mushtlarini tuga boshladi. Uning ko'zlarida hayajon alangananib turardi.

Volturiylar bilan jang qilishimiz kerak, degan fikrdan dahshatga tushdim.

- Yo'q. – Bagirra yordam berish istagini qattiq to'xtatdi – Ellis. Ularga ayt!

Ellis ko'zlarini yumdi va sekin gapira boshladi – Ha. U haq, agar biz jangga kirsak, hammamiz o'lamiz. Volturiylar haqiqatan ham juda kuchli.

- Men bunga yo'l qo'yayman! – Bagirraning nigohi jiddiy va tahlikali bo'lib qoldi – Bitta begunoh oila azob chekdi... Endi bunday bo'lmasligi kerak. Barchangiz birgalikda baxtli do'stona oilasiz. Bu dunyoda yo'qotadigan hech narsam yo'q. Meni bu dunyoda faqat qasos uchun tashnalik ushlab turibdi. Volturiylarning yo'q qilinishi bilan mening vazifam o'z nihoyasiga yetadi. Oilam yo'q bo'lidanidan beri men hech qachon baxtli hayot kechira olmadim. Yigirma yil davomida mening ruhim azob chekdi va halovat izlab yashadim. Endi o'sha on keldi. Nessi bilan uchrashish chog'ida bitta yorqin shu'la qalbimni yoritdi – u muloyimlik bilan Renesmining boshini silab qo'ydi – Agar u xursand bo'lsa, men behuda o'limgan bo'laman, sizlar men boshlagan ishni tugatasiz va omon qolgan Volturiylarni ham qirib tashlaysiz.

- Bagirra, biz uchun o'z hayotingni qurbon qilishga tayyormisan? Karlayl unga iliq, mehrli ko'zlarini bilan qaradi.

Karlayl, ishon, bu qurbanlik bejizga bo'lmaydi. Men hech qachon oilamni qaytarib ololmayman, lekin men sening oilangni qutqara olaman, Renesmining hayotini asrab qola olaman. U ikkalamiz uchun ham yashasin – u ochiq derazaga qayg'u bilan nikohini yugirtirdi.

- Sen bularning barchasini qanday qilmoqchisan? – Edvard Bagirraning ko'zlariga diqqat bilan tikilib, savoliga javobni o'qib olishga harakat qilardi.

Yaxshiyamki, Aro mening qobiliyatlarimning yuzdan bir qismini biladi, xolos. Men ushbu ustunlikdan foydalanmoqchiman. Ertaga sizga batafsil aytib beraman. Hozir esa o'zi yarim tun bo'ldi. Taxminan, ikki oydan beri uxlamayman. Jang oldidan kuch to'plab olishim kerak. Shunday qilib, men biroz uxbab, charchog'imni yozay. – Bu so'zlarni aytu turib charchoqdan esnay boshladi va Renesmini yerga qo'yib, o'zi joyidan turdi.

- Bugun siz bilan uxlasmag bo'ladimi? Renesmi bu so'zlarni qo'ng'iroqdek muloyim ovozda aytди. U kamdan-kam gapirardi. Bu savolni berish uchun unga bitta teginish kifoya qildi. Bagirra qizimga shunday ixlos bilan qaradiki, men qarshilik ko'rsata olmadim.

- Albatta, azizam! Tabiiyki, agar ota-onang bunga qarshi bo'lishmasa. – U Edvard va menga navbatma-navbat nazar tashladi.

Edvard mening ko'zlarimga tikildi. Javobini ifoda etish uchun unga so'z kerak emas edi. Ushbu suhbatdan oldin ham u mehmonimizning yaxshi niyatda ekanligiga amin edi. Men Bagirraning ko'zlariga tikildim – u allaqachon javobni aniq bilar edi – Ha, albatta, Bagirra. O'ylaymanki, bizning qizimiz sen bilan xavfsiz bo'ladi.

Bagirra salgina bosh irg'adi, keyin Renesimni qo'liga oldi va asta chiroyli tarzda zinapoyadan o'z xonasiga ko'tarila boshladi.

- Bagirra! – Men u deyarli yuqoriga ko'tarilib bo'lganda chorladim – Xayrli tun!

- Rahmat Bella! Xavotir olma, hammasi yaxshi bo'ladi! – uning yuzi samimiy mehr ila jilmaydi.

U, albatta, mening fiklarimni o'qigandi. Emmett va Jasper uning eshigi oldida ketma-ket navbatchilik qilishga qaror qilishdi, lekin men qizimdan xotirjam edim. Ehtimol, u hozir Bagirraning qo'lida – eng xavfsiz joydadir. Agar Volturiylar kelsa, Bagirra Renesmi uchun hatto o'ylamasdan ham jonini berishga tayyorligini bilardim. Bagirraning qobiliyatları va kuchini hisobga olgan holda, bu omon qolish uchun haqiqiy imkoniyat edi.

Oldimizda uzoq tun kutib turardi. O'ylash va muhokama qilish uchun juda ko'p narsalar bor, lekin men xotirjam edim. Mening ongimda, Bagirra uyimiz va mening ruhimga tinchlik olib kelishi va, nihoyat, meni uzoq vaqtidan beri ta'qib qilib kelgan barcha baxtsizliklarga chek qo'yishiga ishonch hissi paydo bo'ldi.

5-BOB MO'JIZANI KUTISH

Men yotoqxonaning o'rtasida joylashgan stulga harakatsiz o'tirdim. Mening fikrlarim bu xonadan tashqarida edi. Edvard yonimga o'tirdi va yuzimni muloyimlik bilan silab qo'ydi. Uning qo'llari menga go'yo iliq tuyuldi.

- U bizning dushmanimiz emas, Bella! Uning ovozi mayin va yoqimli edi.
- Menimcha, biz unga ishonishimiz kerak – Karayl qarama-qarshi stulda o'tirdi. Butun oila yotoqxonaga qanday yig'ilganliklarini ham sezmay qoldim. Oldinda tinchgina mudrab yotgan Jeykob uyg'onib, divanda o'tirdi.
- Qanday qilib biz unga ishonishimiz mumkin! – Rozali g'azab va jahl bilan chaqnab ketdi – Qanday qilib unga kichkina Nessiga ishonasiz? U hammamizni o'ldirishi mumkin!

- Rozali! Karayl norozi holda bosh chayqadi: – Agar u xohlaganda, biz bu yerda turmasdik.

Ellis xonaning markaziga kelib, bizga o'z bahosini bayon qildi – Biz unga ishonishimiz kerak. U bizga aytgan hamma narsa haqiqat. Volturiylar bizni yo'q qilish uchun taraddud ko'rishmoqda. Ularning fikriga ko'ra, biz ularning klaniga jiddiy xavf tug'diramiz. Ular kuch almashish uchun ishlatilmagan. Ellisning lablari qaltirardi – Bagirra bizga yordam berishni chindan juda xohlaydi.

- Sen nimani ko'rayapsan, Ellis? – Esme uning yoniga kelib, yelkasidan biroz quchoqladi.

- Men jangni ko'ryapman! Buning oldini olish mumkin emas. Men o'limni ko'ryapman... Bizning o'limimiz... – Ellisning ko'zlarini pushaymonga to'lib toshdi, uning ovozida umidsizlik aks eta boshladи.

- Ammo yengilmas Bagirra haqida nima deyish mumkin? – Jeykob Ellisga ajablanib qaradi. – U hammamizni qutqarolmaydimi?

- Ha, u haqiqatan ham u mening tasavvurlarimda gavdalana boshladи, lekin uni ravshan ko'rishning iloji bo'lmayapti. Aftidan Bagirra hali yakuniy qarorga kelmagan.

- Biz kurashamiz, biz o'zimiz uchun turamiz! – Emmett, har doimgidek, jangni kutib, g'ayrat bilan yonardi.

Ellisning nigohi birdan xiralashtirdi va harakatsiz holatda qotib qoldi. Bir daqiqadan so'ng uning yuzida quvnoq tabassum porladi. Albatta, Edvard ham uning tasavvurini birdek ko'rayotgandi. Men nigohimni u tomonga qaratdim. Ko'zlarimda soqov savol bor edi.

- Bagirra qaror qabul qildi va bu haqda endi uning o'zi aytadi. U ham salgina jilmayib qo'ydi. Men boshimni zinapoya tomon burdim pastki pog'onada Bagirra turardi. Renesmi uning bag'rida baxtiyor jilmayib qo'ydi. Yotoqxona gullarning

iforiga to'ldi. Bu hid attorlik mahsulotlarining hidi emas, o'ylaganimdek, ining mushki edi. Uning harakatlari shu qadar nafis va sokin ediki, men uning zinadan qanday tushganini sezmay qoldim. U xona markaziga benuqson harakatlanib kelib, mening oldimda to'xtadi. Bir lahzadan so'ng, Renesmi mening qo'limga o'tirdi. Bagirra menga mamnun nigoh tashladi va keyin Karlayl tomon yo'l oldi. Mushukning in'omi va epchilligi bilan u stulning charm qo'ltig'iga o'tirdi va qo'lini stulning orqa tomoniga qo'ydi. Shunday qilib, uning yuzi Karlayldan bir necha qadam uzoqlikda turardi. Baghirra o'tirganlardan har birining atrofiga aldamchi nigoh bilan boqardi – Xo'sh, qadrdom Kallenlar, katta safarga tayyormisizlar? – uning jilmayishi bilan yuzi yorishdi, xuddi kulgiga o'xshab, ko'zlarida jonli qiziqish yondi.

- Sayohatmi? – Emmett hayratdan kipriklarini qoqib yubordi – o'ylashimcha, kecha tunda buyuk jang haqida gaplashgandik? Uning ovozida hafsalasi pir bo'lgan kishining tovushi akslanardi.

- Hammasi birdaniga emas, azizim Emmet. Men seni tiriklay ko'rishni istayman – lablari jilmayish kasb etdi. – Shunday qilib, siz menga to'liq ishonib, hayotingizni saqlab qolish uchun barcha ko'rsatmalarimga rioya qilishga tayyormisiz? – Uning yuzi asta-sekin Karlaylga burildi, ko'zlarida esa olov chaqnadi. Endi uning harakatlarida bir tomchi ham noaniqlik, achinish, iliqlik va qayg'u yo'q edi. Kechagi og'riqli hislar izsiz g'oyib bo'lgandi. Endilikda Bagirra qat'iyatli turardi. Karlayl uning ko'zlariga tikildi – Bagirra, biz senga to'liq ishonamiz va bizni xafa qilmasligingga umid qilamiz.

Uning yuzi to'satdan jiddiy lashdi – men hech narsaga kafolat berolmayman, lekin oilangizni Volturihdan himoya qilish uchun qo'limdan kelgan barcha ishni qilishga harakat qilaman.

- Biz ham harakat qilamiz – Jeykobning yuzi jasorat va matonat bilan porlab turardi.

- Xo'sh, hamma meni tinglashga rozi bo'lgani uchun – Bagirra indamay polga sakradi va hamma uni ko'rishi uchun xonaning o'rtasiga joylashdi – Safarga kerak bo'lgan hamma narsani tayyorlash kerak – u xonani ko'zdan kechirardi. – Sizlar faqat eng kerakli narsalar – pul, hujjatlar, kundalik kiyimlarni olib ketishingiz maqsadga muvofiq, bularning barchasi yukxonaga mos tushishi kerak.

- Qanaqasiga aylanib kelamiz? Rozali nafrat bilan Bagirraga qaradi.

- "Yo'q, Rozali, bu umuman boshqacha bo'ladi, lekin men senga bu haqda hamma yig'ilganda aytaman."

- Jeykob ham biz bilan ketyaptimi? Edvardning ovozi jiddiy edi.

- Ha, u biz bilan birga ketadi – dedi Bagirra boshini tasdiqlash ma'nosida qimirlatib.

- Mening to'dam-chi? – Jeykob divandan qo'zg'aldi.

- Ular bu yerda qoladi. Volturiylar Kallenlarni yo'q qilmaguncha ularga tegmaydi – Bagirra asabiy ravishda xonani aylanib chiqardi – Men shunchaki bunday katta jamoani ko'chirishga qodir emasman. – Uning ko'zları nadomatga to'lib ketdi – Vaqtin behuda sarflamaylik, har bir daqiqa muhim. Tayyorlaning, men sizni uyning tashqarisida kutaman. Bu so'zlar yangrab tugamasdan u old eshikdan tashqariga yashindek chiqib ketdi.

Hamma Karlaylga qaradi, u esa zalni ko'zdan kechirib, xotirjamlik bilan dedi
– Men unga bo'ysunishimiz kerak, deb o'layman.

- Lekin nima uchun? Rozali old eshikka tikilib turardi, nega biz unga bo'ysunishimiz kerak? Men buni tushuna olmayapman!

Ellis uning yoniga bordi va qo'li bilan uning yelkasini silab qo'ydi – Rozali, bizda boshqa iloj yo'q, biz haqiqatan ham katta xavf ostidamiz. Rozali nafrat bilan xo'rsindi va narsalarini yig'ish uchun hafsalasizlik bilan yuqoriga ko'tarildi. Qolganlar ham u kabi asta tarqala boshlashdi.

Men kiyim-kechak va pasportlarni orqa o'rindiqqa qo'ydim. Edvard shoshqaloqlik bilan yana bir xalta ichiga bir dasta pul joyladi.

Men gapirishni xohlamasdim... Men indamay kelajagimiz haqida jimgina o'ylardim. Yana urush, qochqinlik, xavf... Ichki qo'rquv hissi meni bir daqiqaga ham tark etmadi.

- Edvard, u nima bilan shug'ullanmoqda? – Men uning tillarang ko'zlariga qaradim – Qayerga ketyapmiz?

Edvard sumkasidan boshini ko'tarib, qo'llari bilan belimni quchdi. Men esa boshimni uning yelkasiga asta qo'ydim.

- Bella! Bagirra nima haqida o'layotganini aniq bilmaydim. Men uning fikrlarini qalin beton devor ortidan kelgandek his qiladim. Ammo bitta narsani aniq bilaman – uning yomon niyati yo'q. Agar kimdir bizga yordam bera olsa, bu ham Bagirra bo'ladi. – Shu gaplaridan so'ng, Edvard labimdan mehr bilan bo'sa oldi, keyin qo'llarini bo'shatib, qo'llarim ustiga qo'lini qo'ydi – Biz shoshilishimiz kerak. Ular allaqachon bizni pastda kutishmoqda. Yuklarimni tugatdim, sumkamni orqamga osib, Renesimni qo'llarimga oldim. Edvard bir qo'limni beliga o'rab oldi va biz tezda zalga shoshildik. Haqiqatan ham bizni hamma kutib turgandi. Butun oila jam bo'ldi. Ularning ortlarida kichik sayohat ryukzaklari osilgandi. Hatto Rozali sport kiyimi va krossovka kiyib olgandi. Jeykob allaqachon bo'ri tusiga kirgan, bu qiyofasi uning safarga shay ekanligini anglatardi. Garchi u bir vaqtlar to'dani boshqarishdan va yetakchiga aylanishdan bosh tortgan bo'lsa-da, taqdiri o'zgarib ketdi va jamoaning o'zi unga bo'ysunishni boshladi, o'zi esa oilani orqaga surib qo'ydi.

Biz zinapoyadan tushib, Jasper va Ellis yoniga turdik. Karlayl sabrsizlik bilan qo'llarini stulni orqaga surib dedi – Menimcha, borishimiz kerak – Uning yuzi xotirjam edi. U, albatta, Bagirraga ishongandi. Bu ishonch esa qolganlarga kuch berdi.

Karlayl bir qo'li bilan Esmeni quchoqlab, tashqari tomon yo'l olishdi. Biz ham ularga ergashdik.

Bagirra kirish yo'lagida turardi. Uning tanasi go'yo harakatsiz edi. Shamol tufayligina uning sochlari biroz qo'zg'alib turardi, xolos. Tush payti edi. Quyosh tik tushayotgan mahal edi. Kun ochiq bo'lganligi sababli quyosh nurlari uning terisida aks etib, sehrli nur taratardi. Uning ko'zlari esa yumilgandi. Qiziq, u hozir nimalarni o'ylayotgan ekin: uzoqdagi kimningdir fikrlarini o'qiyaptimi yoki kelajakka nazar tashlayaptimi? Men Edvardning yuzidan uni ham xuddi shu savol qiyayotganini angladim. Bagirra biz uchun abadiy sir bo'lib qoladiganga o'xshardi.

Nihoyat Bagirra ko'zlarini ochdi va har birimizga diqqat bilan nazar tashladi. Uning qarashlari Jeykobga tushdi.

- Jeykob, iltimos, inson qiyofasiga qayt. Menga sening qo'llaring kerak.

Jeykob itoatkorlik bilan butalar orasiga kirib ketdi va bir lahzadan so'ng u yerdan odam qiyofasida qaytdi.

- Rahmat, Jeykob. – Bagirra unga qarata minnatdorlik bilan bosh irg'adi. – Shunday qilib, senga kichik sayohatimiz haqida aytib berish fursati yetdi. Bir necha yil oldin men bitta noyob in'om – teleportatsiyani qo'lga kiritdim. Menga uni Volturiylar tomonidan yakson qilingan ispaniyalik ahdchilar bergandi. Shunday qilib – bu juda kuchli sovg'a, ammo bu bag'oyatda katta kuch va katta tayyorgarlikni talab qiladi. Afsuski, uni maksimal darajada rivojlantirish uchun vaqtim yetmadi – u uzr so'ragandek yelka qisdi. – Ammo, shunga qaramay, bizda iz qoldirmasdan ketishga boshqa imkoniyat yo'q. Shunday qilib, siz menga ishonishingiz kerak. – Uning ovozi jiddiy va boshqaruvchan bo'lib ifodalandi. – Mening yonimda aylana shaklida turing va bir-biringizning qo'llaringizni ushlang. – Shu bilan u Karlaylning qo'lidan ushlab, kaftini mahkam siqdi. Boshqalar ham itoatkorlik bilan undan o'rnak olishdi. Men ham unga narigi tomondan yaqinlashdim, lekin qo'limda Renesmi bor edi.

- Bella, menga Renesimni ber, - Bagirra menga kuygan qo'lini uzatdi. Beixtiyor orqaga qadam tashladim.

- Bella, menga ishon – bu yanada ishonchli bo'ladi. Agar men bilan jismoniy aloqani yo'qotib qo'ysangiz, teleportatsiya paytida sizlardan biringiz shakl va makon o'rtasida adashib qolishi mumkin. Shuning uchun, u menga yaqin bo'lganligi maqluroq bo'ladi. U mohirlik bilan Renesimni qo'llarimdan olib, yelkalariga o'tqazdi.

- Nessi, singiljon, men qo'llaring bilan boshimni iloji boricha mahkam ushlapping va ruxsat bergunimcha uni qo'yib yubormasligingni istayman.

Renesmi itoatkorlik bilan o'zining qat'iyatli barmoqlari bilan Bagirraning sochlardan ushladi. – Huddi shunday! Aqli qizcha! Senga aytmagunimcha meni qo'yib yuborma. Va endi men sizning qo'llaringizni iloji boricha mahkam ushlappingiz va teleportatsiya paytida nimani his qilsangiz yoki ko'rsangiz ham bir-biringizni qo'yib yubormasligingizni istayman. Uning issiq kafti o'ng qo'limda o'lim

changalidek ushladi. Men boshqa qo'lim bilan Edvardning kaftini mahkam siqib oldim. Shunday qilib, biz Bagirraning yuziga nigoh tashlab, bir-birimizning qo'llarimizdan ushlab va qiziqish bilan bir tekis halqada turdik.

- Tan olaman, men hech qachon jonli narsalarni ko'chirishga muvaffaq bo'lмаганман, lekin menimcha, biz bunga erishamiz.

- Demak, biz tajriba quyonchalari bo'larkanmizda-a? Emmett istehzoli jilmaydi.

Bagirra unga tikilib qaradi va keyin boshqalarga nazar tashladi – Agar hech kim qarshi bo'lmasa, men teleportatsiyaga o'taman. Uchtasi bo'yicha, men sizni ko'chiraman. Tayyorlaning! Ko'rayotgan narsangizdan qo'rwmang. Teleportatsiya paytida sizning ko'zingiz oldida g'alati qiyofalar paydo bolishi mumkin. Ammo bu shunchaki saroqlar. Eng yaxshisi, ko'zingizlaringizni yuming. Shunday qilib! Bir, ikki, uch...

Men kaftlarimni ushlayotgan qo'llarni his qilardim, xolos. Ammo endi atrofimdagilarni ko'rmasdim. U bir zumda g'oyib bo'ldi. Men kaleydoskopga tushgandek o'zimni his qila boshladim, atrofimda ko'p rangli chiroqlar miltillab turardi. Meni g'ayrioddiy parvoz va erkinlik hissi chulg'ab oldi. Men, albatta, qo'llarimni bo'shatib, ularni yuqoriga ko'targancha baqirishni xohlardim, lekin ayni damda buni qilish kerakmasligini ham bilardim. Tanam noma'lum makonda o'z-o'zidan suzib yurardi. Bu ta'riflab bo'lmaydigan, sehrli tuyg'u edi. O'tish bir soniyadan ko'pga cho'zilmadi, ammo bu menga abadiydek tuyilib ketdi. To'satdan nurning portlashi kabi yorqin chaqnash meni ko'zlarimni qamashtirdi va men beixtiyor ko'zlarimni yumib oldim.

6-BOB

OMADSIZLIK OROLI

Ko'zlarimni ochganimda, xuddi afsonalardagidek ko'k moviy ko'rfaz (laguna), musaffo suv, sarg'ish qum va jazirama quyoshni ko'rib turardim.

- Bu Ozodlik oroli! – Bagirraning ovozi meni fikrlarimni bo'ldi va voqealikka qaytardi – Bu mening orolim. Bu joy dunyoning biror bir xaritasida yo'q. U Bermud uchburchagida joylashgan bo'lib, har tomondan marjon rifi (suv osti qoyasi) bilan o'ralgan va shu qadar kichikki, u samodan deyarli ko'rinxaydi.

Men atrofga qaradim. Orqa tomonimda tropik o'rmon bor edi. U yerdan har xil hayvon va qushlarning ovozi eshitildi. Mening yonimda Edvard va Bagirra Renesmi bilan birga turishardi. Qolganlar qarshimizdan o'rinn olishgandi. Ularning ham og'zi hayratdan katta ochilib qoldi. Vampirni ajablantiradigan narsa kam, ammo Bagirra bunga erisha olgandi.

- Bagirra, buni qanday uddalading? – Edvard unga zavq bilan qaradi. Rashk haqidagi xayol miyamga singib ketdi, lekin men darhol uni quvib chiqardim. Edvard meni yaxshi ko'radi. Men buni bilaman va bema'nilik haqida o'ylamasligim kerak edi, ayniqsa, hozir.

Bagirra kulib yubordi – Favqulotda, bu jarayonni tushuntirib bo'lmaydi, Edvard, lekin men shunchaki hammasi yaxshi ketayotganidan xursandman.

- Bagirra, bu yerda qolishimizdan maqsad nima? Karlayl xotirjamlik bilan atrofni ko'zdan kechirdi. – Nima qilmoqchisan

- Bu orol ko'zga ko'rinxmas, ishg'ol qilinmaydigan qal'a. Bu yerda men sizlarni yashiraman. Siz ko'ryapgan toshlar – u lagunani o'rab turgan shaffof tog'lar zanjiriga imo qildi – deyarli ikkala tomondan vertikal va gorizontal tarzda orolni har tomondan o'rab, panzer shaklidagi dubulg'ani hosil qilgan. Bu esa orolni ko'rinxmas va kirish imkonsiz holga keltiradi. Bu qanchaga qadar vampirlarni to'xtatishini bilmayman, lekin bu boshlanish mening halokatli ha ucrukati uchun yetarli bo'lishi kerak. Biz Forksdan hech qanday iz qoldirmasdan ketdik. Aro teleportatsiya qilish qobiliyatim haqida bilmaydi – bu holat bizga g'alaba qozonish uchun yaxshi imkoniyat beradi.

Bir muncha vaqt siz bu yerda to'liq xavfsizlikda bo'lasiz va bu orada men Italiyaga boraman, yo'l bo'ylab Volturiylarni tutib, taqdir izmi ila menga topshirilgan vazifani ado etaman va, nihoyat, ruhimni bu og'ir yukdan ozod qilaman. – Uning ko'zlar g'amgin bo'lib qoldi, ehtimol endi u o'tgan hayoti, oilasi va Volturiylar tufayli yo'qotgan narsalari haqida eslay boshlagandir, men uning ko'zlarida yana baxtsiz bolani ko'ra boshladim, u taqdiri va uning atrofidagi dunyodan nadomat tortdi – men sizlardan faqat bitta narsani so'rayman... – Uning qarashlari g'azab va nafratga to'lgandi. – Agar men boshlagan vazifamni bajarmay o'lib qolsam, uni men uchun tugallang va Volturiylarning hammasini butunlay yo'q qiling. U so'zlarni asta-sekin

gapirar, har bir so'zni aniq ifoda etar, ularni bizga ta'sir qildirmoqchi bo'lardi. – Siz menga buni va'da qilishingiz kerak.

- Yaxshi Bagirra, albatta, biz qo'limizdan kelganini qilamiz, – tushungancha Karlayl bosh chayqadi, – lekin sen Italiyaga yolg'iz borishing kerakligiga aminmisan?

- Ha, lekin biz haqimizda nima deyish mumkin? – Jeykob Bagirraga tushunarsiz tarzda qaradi. – Biz ham kurashishimiz kerak! Birgalikda biz kuchliroqmi!

- Yo'q! – Bagirra boshini salbiy chayqadi. – Yangi Aro qo'shini bilan taqqoslaganda, siz juda zaifsiz va men sizlarning birortangiz jarohatlanishingizni istamayman. – Uning qarashlari sovuq edi.

- Ammo, Bagirra... – Karlayl unga yaqinlashdi – Kel, yordam beraylik...

- Ellis. – Bagirra uning ko'zlariga diqqat bilan qaradi. – Men ham kelajakni ko'ra olaman. Aytgancha, men ushbu in'omni bir necha yil oldin sendan olgandim. Ammo, afsuski, u menda unchalik rivojlanmadni va juda ko'p tayyorgarlikni talab qiladi, shuning uchun sen, Ellis, mening ko'zimlarim bo'lasan.

- Yaxshi, Bagirra, aytganingcha bo'la qolsin – Ellis boshini chayqadi.

- Fikringni bir joyga jamla va ko'rganlaringni ayt!

Ellis itoatkorlik bilan ko'zlarini yumdi va sekin gapira boshladи – Volturiylar esankirab qolishdi. Ularning aql-idroki bizning to'satdan yo'q bo'lib qolganimizni tushuntirib berolmayapti, lekin men jangni ko'ryapman... Biz hammamiz kurashmoqdamiz... Nimadir noto'g'ri bajarildi...

- Rahmat, Ellis, - deya Bagirra Ellisning yoniga borib, qo'lini yelkasiga qo'ydi – Yaxshi ishlading. Alomatlar keyinroq o'zgaradi, deb o'ylayman. – Uning yuzi mamnun tabassum bilan yorishdi, lekin men uning ko'zlarida yashirin tashvish soyasini ko'rdim, u ehtiyyotkorlik bilan bizdan niqoblamoqchi bo'lardi va hozir men sizga keyingi turar joy ko'rsatish istayman. Iltimos, menga ergash! U beixtiyor qo'lini o'rmon tomon imladi va bir lahzadan keyin barglar orasida g'oyib bo'ldi. Biz itoatkorlik bilan uning orqasidan ergashdik. Bagirra bizni orol orqali o'rmon chakalakzoriga olib bordi. Keyin u bizni g'ayritabiyy tekislikka boshladи. Bir qadam o'tgach, men quyosh nurlarining yorqin nurlari bilan to'ldirilgan mo'jaz maskanda o'zimni ko'rardim. Tropik daraxtlarning zikh barglaridan o'tib, uzun va keng maydonagi yashil maysa ustiga ohista keldik. Ammo keyin, mening ko'z oldimda yana ham ajoyib va hayratlanarli tasvir paydo bo'ldi – bu maydon markazida ulkan daraxtli uy bor edi. Men darhol Robinzon Kruzoning hikoyasini esladim. Uy qandaydir g'alati daraxtning yuqori qismida joylashgan edi. Unga arqonli narvon va lianalar (uzum tanasiga o'xshash o'simlik) orqali chiqish mumkin edi. Yaqin atrofda zilol suvli daryo oqardi. Undan suv olib, uni to'g'ridan-to'g'ri uyga keltirish uchun daryoga kichik yog'ochli suv tegirmoni qurilgandi. Bular huddi bolaligimdagи ertakka

tushib qolish tasavvuri kabi edi. Edvardning yelkasida o'tirgan Renesmi esa zavq bilan kulib yubordi. Qolganlarning hammasi bir so'z aytolmay, jim qarab turishardi.

- Bu mening maskanim, aniqrog'i uyim. – Bagirra bizning reaksiyamizni mammuniyat bilan o'rganib chiqqandi. – Ichkariga kiraylik. – Bu so'zlarni ayta turib o'zi narvon yoki lianadan foydalanmasdan yuqoriga sakrab chiqdi.

Uy ichkarisi juda keng va shinam bo'lib chiqdi. Bagirra bizga sayohat tashkil etdi, mana endi xona ham ajratdi. Edvard, Renesmi va men kichkina karavotli va tebranadigan stulli kichkina yotoqxonani oldik. Bu xonadan yetarlicha iliqlik va samimiylit taralardi. Burchakda esa bolalar uchun yotoq ham bor edi. Bu Renesmi uchun juda mos o'lcham edi. Men hayrat bilan Bagirraga qaradim.

U darhol mening fikrlarimni o'qidi va ikkilanmasdan javob berdi: – Yo'q, Bella. Bu to'shak, aynan, Nessi (Renesmi) uchun maxsus tayyorlanmagan. Bu mening xonam. Bir vaqtlar men avval beshikda, so'ngra o'sha karavotda yotib uxlardim. – U mehr bilan xonani qayta ko'rib chiqdi – Bu mening ota-onamning uyi. U Volturiylardan muhofazalangan, chunki aholi punktidan yiroqda joylashgan va g'ayrioddiy ko'rinishga ega edi. Yigirma besh yil oldin, otam o'z hayotini ertakka aylantirish uchun bu uyni kichkina Girra uchun qurdirgan – uning ko'zлari baxt va muhabbat bilan porlab, keyin bir zumda qichqiriq g'azab va azobga to'ldi – Ammo hammasi bir zumda yo'q qilindi. Buning uchun esa ko'pchilik kattagina tovon to'laydi. Men teleportatsiya orqali bu yashirin orolga omon qolgan ushbu uyni o'tkazdim. Ruhim tanada qolish uchun chidab bo'lmas darajada azoblanganda, men bu yerga kelardim. – U xafa bo'lib yelkalarini qisgancha xonadan chiqib ketdi. Keyin u Karlayl va Esmega sovg'a qilgan ayollar kosmetikasi bilan to'ldirilgan katta to'shakli va ulkan oynali xona ko'zga tashlandi. Bu esa uni ota-onasining xonasi edi.

Edvard bilan men Renesmini yotqizib, mehmonxonaga kirganimizda, hamma allaqachon yig'ilgan edi.

- Bagirra, sen bizga ushbu muhtasham uyning barcha xonalarini mehribonlarcha berding – Esme unga onalik muhabbati va samimiylit iliqlik bilan qaradi. – Ammo o'zing qayerda joylashasan?

- Men... - Bagirra g'amgin bo'lib tashqariga qaradi. – Men sizlarni bu yerda qoldiraman, o'zim esa Italiyaga boraman!

- Hozirmi? – Bu mening aqlimga sig'may qoldi, men uning ketishini qabul qila olmadim. Men ong ostim bilan uning shu yerda bo'lishi zarurligini his qilardim.

Yo'q, men tong otguncha ketaman, ammo hozircha hamma narsani yaxshilab o'ylab ko'rishim kerak. Uning qarashlari jiddiy lashdi. – Sizlar esa meni bu yerda kutasiz. Agar biror narsada xatolik ro'y bersa, unda buni Ellis orqali bilib olasiz, keyin esa sharoitga qarab harakat qilishingiz lozim bo'ladi. Qolaversa, bu joy siz uchun eng ishonchli hisoblanadi – bu yerda xotirjam bo'lasiz. Mahalliy flora turli xil hayvonlarga boy, shuning uchun siz tabiatning tabiiy muvozanatini buzmasdan ov qilishingiz

mumkin. – U so'zlarini yakunlab, mushuksimonlar in'omi va epchilligi bilan o'zidan uch metr narida joylashgan ochiq derazadan bir sakrashda chiqib, tashqaridagi daraxtning qalin shoxiga joylashdi. Uning imkoniyatlari meni hayratga soldi. U haqiqatan ham ajoyib edi, qolaversa, Aro uning kuchi va go'zalligi haqida gapirganda hech qanday mubolag'a qilmaganiga endi amin bo'ldim.

Karlayl mulohaza bilan bosh chayqadi: - Demak, bizning unga qulq solishdan boshqa choramiz yo'q. Edvard, bu haqda nima deb o'ylaysan.

Edvard mening ko'zlarimga tikilib, keyin Karlaylga qaradi – Bagirra bizga yordam berishni istayapti va biz ham unga ishonishimiz kerak. U qo'llari bilan yelkamdan quchib, bag'rige bosdi.

Men biroz vaqt balkonda turib, daraxtlarning orqasida yashiringan quyoshni va yakunlayotgan kunni tomosha qildim. Men hayot, har bir o'tgan baxtli kun, ajoyib damlar haqida o'ylardim. Vampirga aylanganimdan so'ng, menga abadiy baxt va muhabbat nasib qilganday tuyuldi, lekin Volturiylar kelib, bu inju orzularni barbos qilishdi. Endigina vampirning hayoti ham osuda va silliq bo'lmasligini angladim. Ammo mening qalbimda umid bor edi. Uzoq vaqt davomida meni ta'qib qilayotgan muammolar karvoni a'lal-oqibat baxtli yakunlanishiga umid qilaman. Mening fikrlarimni orqamdag'i shovqin to'xtatdi. Men orqaga o'girildim va beixtiyor mudofaa holatiga o'tdim. Bagirra mening qarshimda turardi. Aftidan, u bu joyga daraxtning yuqori shoxidan sakrab chiqqan. Uning ko'zları zulmatda oyning nuri tufayli yorqin yashil maftunkor rangga ega bo'lib, qorachiqlari mushuknikiga o'xshab bir chiziqdek bo'lib qolgandi. Bu manzara kishini abadiy hayratga soladigandek tuyulib ketdi. Uning nigohi maftunkor edi va meni harakatlanish qobiliyatidan mahrum edi, lekin o'zining yoqimli ovozi bilan meni yana o'zligimga qaytardi.

- Bella, yomon fikrlar senga tinchlik bermasa, ularni unut va yaxshi narsalarga haqida o'yla. Ishonaver, bu yordam beradi. Hayotimda quvonchli lahzalar ko'p bo'lmasliganiga qaramay, men buni doim qilaman. – U mehr ila ko'zlarimga qaradi.

- Girra – Men uning bu ismga munosabat bildirilishidan qo'rqib, biroz to'xtalib qoldim, chunki birinchi uchrashuvimizda u faqat do'stari shunday chaqirishini aytgandi, men esa uning do'sti bo'lishni xohlardim – Seni shunday chaqira olamanmi? – men tortinchoq nigohimni ko'tarib uning yuziga qaradim.

- Ha, Bella. – Lablariga ozgina tabassum yugurdi - Sen va va butun oilang ham... Men sizlarni do'stlarim deb bilaman. – Uning ko'zları iliqlik va mehrga to'ldi.

- Girra! Bizni nima kutmoqda? Ertangi kun bizga nima olib keladi? – Men undan o'lim haqida so'rashdan qo'rqardim.

- Bella, men bir narsani bilaman. – Uning yuzi yana jiddiyashdi – ertangi kun hammamiz uchun ahamiyatli bo'ladi. U kim bu dunyoda qolishi, kim esa abadiy yo'q bo'lib ketishini belgilaydi. Uning ko'zlarida olov porladi... Qasos alangasi. – Tongda men Italiyaga jo'nayman. Siz esa hammamiz uchun ibodat qilishingiz kerak. Ammo,

Bella, ishon, – u mening kaftlarimni qo'llariga oldi – men Nessi va barchangizni qutqarish uchun bor kuchimni sarflayman. – Bu so'zlarni yakunlab, u balkondan sakrab tushdi va o'rmon ichra g'oyib bo'ldi.

Men butun kechani balkonda harakatsiz o'tkazdim. Edvard mening histuyg'ularimni tushundi va shuning uchun yolg'iz qolishimga imkon berdi. Osmonda tongning dastlabki shafaqlari paydo bo'ldi. Edvard balkonga chiqdi va qo'llarini belimga aylantirdi. Uning lablari ohista mening labimga tegdi va bo'sa olib quchog'imizni bir-birimizga ochdik. Keyin u muloyimlik bilan qo'lini yonog'imga bosdi va dedi: - Yur, Bella, Bagirra bizni kutmoqda.

Edvard bilan men yotoqxona uchun jihozlangan kichik xonaga kirdik. Butun oila, shu jumladan, Jeykob ham allaqachon shu yerda edi. Renesmi Bagirraning yelkasida o'tirar va mammunlik ila uning sochlari turmaklaridan tortardi. Men Bagirraning ko'zlariga qaradim. U menga qarata javob berdi. Bu qarashdan men nimadir his qildim. Men uning qalbida tashvish his qila boshladim. – Biror narsa bo'ldimi, Bagirra? – Men qo'rqib uning oldiga bordim. – Nimadir noto'g'ri bajarildimi? – Men madad izlab Ellisning ko'zlariga qaradim, ularda buni ko'rmadim. Ellis ham beixtiyor Bagirraga tikilib qoldi.

- Ellis... Sening tasavvurlaring... Sen haq eding... – Bagirraning ko'zlarida afsus va hamdardlik aks etdi.

- Ammo, Bagirra, - Ellisning qiyofasi bir xil, tushunarsiz bo'lib qoldi. – Ular o'zgarishi kerakmasmidi?

- Yo'q. Men xato qildim. – Uning yuzi ko'rinasining og'riqdan burishdi. – Men Volturiylar armiyasining kuchini nazarga ilmadim yoki biron narsani e'tiborsiz qoldirdim. Endi bu muhim emas. Vaziyatning ahamiyati shundaki, Volturiylar bizni topishdi. Kutganimdan ancha tez... Men Aroning fiklarini o'qidim. Ular allaqachon bu yerga kelishmoqda. – Bagirra noumid bilan yelka qisdi – men ularni to'xtatishga ulgurmayman. Kechirasiz, lekin janglardan qochib qutula olmaysiz. Barchangiz kurash olib borishingiz va ushbu qudratli kuchga qarshi kurashishingizga to'g'ri keladi.

- Sen-chi, Girra! Endi nima qilasan? – dahshatli fikr miyamga singib ketdi. U bizni taqdirimizni o'z izmiga topshirib qo'yamoqchimi? U qochishga qaror qildimi? Axir, agar o'ylab ko'rsangiz, bu uning uchun eng yaxshi variant-da! Hayotingizni bexuda xavf ostiga qo'yish... qandaydir yashirin burchakdan panoh topish... o'zingizni tayyorlash... kerakli daqiqani kutib, zarba berish... Ammo biz qanday amallaymiz? Axir, halok bo'lamic! U qasos olish uchun bizni qurban qilishga tayyormi? Miyamdagagi fikrlar katta tezlik bilan mavjlanardi...

- Yo'q, Bella, men bunday qilmayman. – Bagirra, shubhasiz, men o'ylagan hamma narsani bilib turgandi. U hammamizga sinchkovlik bilan nazar tashlab chiqqan dedi: – Men sizlarni tark etmayman. Biz yonma-yon, yelkama-yelka birga

kurashamiz. – Uning ko'zlar qasos olish uchun tashnalik bilan to'lgan edi – Agar menga Volturiylarning qabih panjalaridan o'lish va taqdirimni bajarmay abadiylikka cho'mish nasib etgan bo'lsa, unda men taqdirning bu da'vosini qabul qilaman va yana bir begunoh oilaning o'limiga yo'l qo'yishdan ko'ra siz uchun kurashib o'lishni afzal bilaman. Men sizlarni olib keldim. Voqealar rivojini to'g'ri bashorat qila olmadim va shu bilan sizni orolda ushlab qoldim. Ammo sizga va'da beramanki, men sizni jangga olib bormayman va najodingiz uchun mumkin bo'lgan hamma narsani qilaman.

- Biz har doim tayyormiz, Bagirra! – Emmet jangga tayyorligini ko'rsatib, oldinga qadam tashladi.

- Siz jangga tayyorligingizdan xursandman, lekin o'ylaymanki, yaxshiroq bir nechta narsa bor – U xonaga bir nazar tashladi. – Jasper sizga yangi tug'ilganlar bilan ishslash taktikasini o'rgatdi va shundagi bitta muhim narsani eslang – ular qonga tashna yangi tug'ilganlardir. Volturiylarning butun armiyasi qayta tug'ilganlardan iborat – uning ovozi ikki oktavga ko'tarildi va uning nutqi o'z hikoyasiga kirishib ketgan professoring ma'ruzasiga o'xshardi. – Ammo bu konvertatsiya qilganlarning har biri o'ziga xos va kuchli in'omga ega. Bu bizning eng katta muammomiz.

Jasper xayollardan holi bo'lib boshini ko'tardi. – Xo'sh, nima taklif qilasan, Bagirra? Ularga qanday qarshi turamiz?

Bagirra biroz o'ylanib qoldi – Biz taktika ishlab chiqishimiz kerak. Hamjihatlik va harakatlarni muvofiqlashtirish bizni qutqaradigan yagona narsa va, albatta, omad kerak bo'ladi. U kinoyali tarzda jilmaydi.

- Demak, sen bizga omadga tayanib, o'limimizni istagan dushmanlarimiz kelguniga qadar kutishimizni taklif qilyapsanmi? Rozali norozi bo'lib Bagirraga qaradi.

- Yo'q. Men buni nazarda tutmadim. Siz omadga emas, balki menga va kuchingizga ishonishingiz kerak. Axir, siz Volturiylar qo'rqqan Kallenning buyuk, kuchli va iqtidorli oilasisiz. Buni unutmang! – Uning ovozida jo'shqinlik hissi paydo bo'ldi. Ruhan u bu jangga to'liq tayyor edi. Uning jismoniy tayyorgarligi ham uni uyaltirib qo'ymaydi deb umid qilishimiz mumkin edi.

- Barchangizni pastga tushishga va harakatlarimizni eng mayda-chuydalarigacha o'ylab ko'rishga taklif qilaman. – Bagirraning kayfiyati nihoyat ko'tarildi. U o'zining qo'rquvini jilovladi va ruhan, ehtimol, allaqachon Aro va uning barcha qo'pol qo'shinlarini mayda-chuyda qilib tashladi. Uning kayfiyati qolganlarga kuch berdi. Bagirraning yuzini mamnun tabassum yoritardi. – Boramiz! U chiqish tomon qo'li bilan ishora qildi.

- Biz buyuk qo'mondonga itoat qilamiz! – Emmettga ham uning g'ayrati yuqib, xursand jilmaydi.

Bagirra unga do'stona tabassum bilan javob berdi va birodarga o'xshab yengil musht bilan yelkasiga qoqdi. Aftidan yengil ko'rinaridigan bu teginishdan Emmet chayqaldi va deyarli yiqilib tushdi.

- Yaxshi! Emmett xursand jilmaydi va Bagirrani orqaga surish uchun silkindi. Uning yuzi baxtdan charaqlab turardi, u o'yinlardagi yangi hamroh topgandi.

Ammo Bagirra aqlli ravishda qochib ketdi – Avval meni ushla! – Panterra mukammal tarzda va katta tezlik bilan pastga sakrab chiqdi. Emmett darhol uning orqasidan ergashdi. Biz hammamiz ajablanib bir-birimizga qarardik. Men Rozalining g'azab va norozilik bilan tishlarini g'ichillatishini eshitardim.

Biz pastga tushganimizda, Emmett allaqachon tushunarsiz bukchaygancha yerda yotar, Bagirra esa uning yuzida mamnun tabassum bilan o'ng qo'lini va chap oyog'ini burab o'tirar edi. Miyamga g'alati bir fikr keldi – Bagirra bizning oilamizga juda mos tushdi va singlimizga aylanishi mumkin edi. Birgalikda o'tkazgan bir necha kun ichida unga qanday qilib bog'lanib qolganimni o'zim ham sezmadim. U menga juda yaqin va qadron bo'lib tuyulib ketdi, go'yo bizni ko'rinasip bog'lab turgandek. Lekin eng qizig'i shundaki, men boshqalarning ko'zida ham xuddi shu tuyg'ularni o'qidim. Bir narsa menga Rozali ham oxir-oqibat uni qabul qilishi va hatto yaxshi ko'rib qolishi mumkinligini bildirardi, chunki u meni qabul qildi va Jeykobning doimiy birga bo'lishiga ham toqat qildi-ku!

Keyin Bagirra Emmettning ustidan sakrab tushdi – Xo'sh, birodar, mening foydamga 1:0 ga o'xshaydi! Uning yuzi do'stona tabassum bilan yorishdi.

Emmett yerdan turib, o'zini noqulay his qilib dedi: - Men revanch (qasos) olaman, Bagirra!

- Yaxshi, Emmett, biz Volturiylarni yo'q qilganimizdan keyin olaverasan. Uning yuzi jiddiylashib, yana diqqatini jamladi. – Demak, tayyorgarlikni boshlash vaqt keldi. Ellis! Menga sening yordaming kerak.

Ellis ijobiy bosh irg'adi.

- Ular qaysi tomondan kelishadi, qanday harakat qilishadi va qancha vaqtimiz bor?

Ellis, odatdagidek, nigohini bir nuqtaga qadadi – Ular shimoldan kelishmoqda. Men ularning qanday harakat qilishlarini aniq aytolmayman, ammo shuni aytishim mumkinki, ular havoda yurishadi va bu yerda 24 daqiqada shu yerda bo'lishadi. – Uning qarashlari yana o'z holatiga qaytdi.

- Rahmat, Ellis. Bagirra minnatdorlik bilan bosh irg'adi. – Yaxshi, demak ular bu yerga kelishadi. – U qo'lini oldinga qaratdi. – Men ularning qanday harakat qilishlarini ham aniq tushunolmayman, ammo agar ular havoda yurishsa, shaffof qoyalar ularni bir daqiqa ham ushlab qololmaydi. Sizga shuni ham aytishim mumkinki, Aro bu buyuk jangga barcha yaqinlari va 33 ta tayyorlangan iqtidorli vampirlardan iborat qo'shin bilan keladi. U o'zining g'alabasiga to'liq ishonmoqda va

shuning uchun butun oilasini o'zi bilan birga bizning qulab tushganimizni ko'rsatish va o'z kuchini, qudrati va hokimiyatini yana bir bor namoyish etish uchun olib keladi.

- Bu ishlarimizni murakkablashtiradi. – Karlayl diqqat bilan Bagirraning ko'zlariga tikildi. – Bizning ustunligimiz nimada?

- Bizning kuchimiz oilaviy aloqalarda. Birodar hech qachon qondoshiga hiyonat qilmaydi va u uchun jonini berib, ko'kragi bilan himoya qiladi. Aro armiyasida bunday fazilatlar mavjud emas. – Bagirra xuddi ruhiy holatini unga anglatmoqchi bo'lgandek, Karlaylning ko'zlariga tikilib qoldi. Keyin u hammamizga tezkor nazar tashladi. – Shunday qilib, keling, kuchlarni qayta taqsimlashga o'tamiz. Bella, sening ustunliging - bu qalqon. Sen bilan biz himoya qilishning umumiyligi zanjirini qurishni boshlaymiz. U yerga tur. – U qo'llarini daraxt tanasiga qaratdi. - Nessini esa qo'llaringga ol.

Men itoatkorlik bilan uning ko'rsatmalariga amal qildim.

- Sen bizni qalqon kabi muhofaza qilasan va boshimizga ta'sir o'tkazishlariga yo'l qo'yamsan.

"Bizning" so'zini eshitganidan juda mammun bo'ldim, chunki unga hech qanday ruhiy hujum ta'sir qilmasdi. Bu shuni anglatardiki, u o'zini oilamizning bir qismi, butunning bir qismi deb hisoblay boshlagandi. – Ammo sen bizni va, bir vaqtning o'zida, jismonan o'zingni himoya qila olmaysan, chunki senga qalqon holati uchun to'liq konsentratsiya (diqqatni jamlash) kerak bo'ladi. Shunday qilib, Esme va Rozali, uning ikki tomoniga turinglar. – Bagirraning ovozi jiddiy edi, ko'zlarini butunlay diqqat markazida edi. – Karlayl, Bellaning oldida tur. Emmett, Jasper, Jeykob (u oldinroq bo'ri qiyofasiga kirgandi), Edvard va Ellis - siz ularning asosiy himoyachisi bo'lasiz. ularning oldida yarim doira shaklida turing. Men sizning oldingizda turib, og'irlikni o'z zimmamga olaman. Siz mudofaani saqlashingiz va dushmanning orqa tomonga o'tib olishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak bo'ladi. – Uning ko'zlarida olov chaqnab ketdi.

Men butun oilani 72 soat oldin o'zlarining ashaddiy dushmani deb hisoblagan jonzotning buyruqlariga itoat qilganliklariga guvoh bo'ldim. Hammasi qanchalik tez o'zgardi. Bagirra bizni sehrlab qo'yganday tuyuldi, bizni homiylik ila o'z himoyasiga oldi. Yo'q, men singlim haqida yanglishganman. Ehtimol, u bizning najot farishtamiz bo'lishi mumkin edi. Uning huzurida biz qanday xavfga duch kelayotganimizni tushuna olmasdim. Biz hali ham bunday jiddiy muammolarga duch kelmagan edik, ammo barchamiz ularning miqdoriy va kuchli ustunliklariga qaramay, o'zimizning g'alabamizga ishonardik. Bu ishonchning sababi Bagirra edi, u bizga o'zining jasorati va kuchini yuqtirganday tuyuldi. Ammo biz uning qanday qobiliyatlarga ega ekanligini aniq bilmas edik, ehtimol, u haqiqatan ham aqlga sig'maydigan tarzda o'z kuchining bir qismini bizga o'tkazgandir.

Bagirra bizni yarim doira shaklida tizib, uning tuzilmasiga diqqat bilan nazar tashladi. – Bella bizni psixologik xurujdan xalos qiladi, biz uchadigan qotillar va oltita qurolli yaramaslar bilan kurashamiz.

- Ular yana nima? – Emmett hayratdan qoshlarini ko'tardi.

- Ha, Emmett. Ba'zi birlari bor. – Bagirraning nigohi qayoqqadir uzoqlarga qadaldi. – Men sizga Volturi armiyasi haqida yana bir narsani aytmoqchiman. Endi Jeyn, Alek, Kayus va Markuslar orqa frontda turishadi. Tuslanuvchilar, olov yuboruvchilar, tirik muzqalblar ruhiy hujum bo'yicha mutaxassislardir. Ammo ularning barchasi bizni qo'rqitmaydi. O'ylaymanki, biz ularni osonlikcha yengishimiz mumkin. Emmett shunday emasmi? – u Emmettga qarata ayyorona tabassum qildi. U ham ham jilmayib, boshini tasdiq bilan qimirlatdi.

- Ammo men sizga hammamiz uchun eng dahshatli dushman haqida aytmoqchiman. Bagirraning yuzi yanada jiddiylashdi. – Uning ismi Aida. Bu o'n ikki yoshlardagi kichik sariq qiz. Uning in'omi vampirlarning ruhini olib qo'yish qobiliyatidir.

- Lekin u buni qanday amalga oshiradi? – Edvard ajablanib Bagirraga qaradi.

Nazariy jihatdan, vampirning tanasi ruh uchun buzilmas zindondir. Boshqa tomondan, Aida uni moddiy bo'lмаган darajada ochishi va jismoniy qobiqni buzmasdan ruhni ozod qilishi mumkin. Shuning uchun uni boshingizga tegishiga yo'l qo'y mang. Endi, Emmett, Jasper men sizning katta olov yoqishingizni xohlayman.

Emmett va Jasper tezda olov uchun ko'plab shox-shabbalar olib kelish uchun o'rmon tomon yo'l olishdi. Edvard mening oldimga kelib, yelkalarimni quchoqladi va Renesmining peshonasidan o'pdi. – Bella, bilaman biz uddalaymiz, men seni yaxshi ko'raman. Qo`rqma! Men seni himoya qilaman.

- Edvard, men o'zim uchun qo'rqlayapman. Men sen uchun qo'rqlaman, kimdir jarohat olishidan qo'rqlaman. – Men boshimni uning yelkasiga qo'ydim. U meni yanada qattiqroq bag'riga bosdi va asta pichirladi: - Men ehtiyyot bo'laman. Hammasi yaxshi bo'ladi. Menga ishon! – U mening lablarimdan muloyimlik bilan o'pdi. Bu bizning so'nggi bo'samiz bo'lishi mumkin, degan fikrni o'ylashni ham istamasdim.

Yalanglikda ulkan gulxan yoqildi. Bagirra joyiga qaytdi. – Hamma o'z pozitsiyasini egallash vaqtি keldi. Men asosiy zarba to'lqinini qabul qilaman. Sizning vazifangiz orqa tomonni himoyalashdir. Albatta, bitta muhim narsani yodda saqlang. – Uning ko'zlari nafrat va tashnalik bilan alangalandi. – Aro meniki! U tishlarini g'ijirlatdi, qo'llarini mushtga oldi, qorachiqlari mushuknikidek uchburchak va ensiz bo'lib goldi.

- Bella! Bagirra onadek mehribonlik bilan mening ko'zlarimga qaradi. - Nessiga g'amxo'rlik qil.

Men unga minnatdorlik bilan bosh irg'adim.

- Xo'sh, vaqt bo'ldi. U bu so'zlari bilan bizdan yuz o'girdi va Volturiylar kelishi kerak bo'lgan tomonga qarab, o'rmon qariga nigohini tikdi.

7-BOB QONGA QON

Mening butum tanam toshdek qotib qoldi... Renesmi qo'llarimni mahkam ushlab olgan edi. Mening ko'zlarim Volturiylar kelayotgan daraxtlar orasidagi zulmatga yo'naltirildi. Men faqat bitta narsani o'ylardim - agar qalqonim ishlasa edi, men uni tinimsiz boshqara olsam edi... Qaniyni... Oilamni tushkunlikka solmaslik uchun... Chunki jang natijasi shunga bog'liq bo'ladi. Hammaning taqdiri menga bog'liq... Bu safar jangni oldini olish mumkin emasligini aniq bilardim. Volturiylar qat'iyatli va hech qachon o'z maqsadlaridan voz kechishmaydi. Ular bizni yo'q qilish uchun kelishmoqda, men bunga zarracha shubha qilmayotgandim. Ruhiy jihatdan men jingga tayyorgarlik ko'rayotgan edim. Jangning yuzlab variantlari mening ongim bo'ylab tez aylanib yurar, lekin faqat ikkita natija bo'lishi muqarrar edi: yo biz, yo ular!

Birdan ko'zlarim qalin yaproqlar orasidagi ohista harakatlarga tushdi. Atrofimda himoya aurasi (qobig'i) hukm surar, bu esa havoni tozalayotganday tuyular edi. Bir lahzadan so'ng o'rmondan qorong'u sharpa, soyalar chiqib keldi. Ularning soni ellikka yaqin edi, ehtimol undan ham ko'proq. Bu holat esa meni dahshatga soldi. Shuncha vampirga qarshi imkoniyatimiz yetarmikin? Men nigohimni Bagirraga qaratdim. U menga orqa o'girib turardi, men uning yuzini ko'ra olmasdim, lekin tanasi shunchalar o'ziga bo'lgan ishonch va to'la jangovar tayyorlik energiyasidan nur sochib turardi. Bu energiya undan ko'chib bizga o'tdi, u xuddi bizning qalqonimiz singari bizni o'rab oldi va hammamizni o'z ostiga go'yo muhofazaga oldi. Endi ishonchim komil bo'ldi – Bagirra bizni qalqon bilan qoplagandi. Yo'q, meniki kabi emas. Bu boshqacha energiya edi va uni men buni osonlik bilan payqadim. Bagirraning qalqoni bizga uning kuchi va g'ayratining bir qismini o'tkazardi. Endi men bu qalqонни yaxshi his qildim va hatto uning chegaralarini ham ko'ra boshladim. U hammamizni o'rab, o'ziga hos muhitni hosil qilgandi.

Yaqinlashib kelayotgan soyalarga diqqat bilan razm soldim. Ular Volturilar edi – adashishim mumkin emasdi. Ularning hammasi qora rido kiygan, lekin yuzlari parda ortida yashirilmagandi. Aftidan, ular bu orolda yashirish uchun odamzod yo'qligini bilishgan. Faqat biz bor edik va ular... Oldinda ikkita aka-uka kelardi. Ehtimol, ular Aro bilan uyimizga kelgan o'sha vampirlardir... Demak, ular uning asosiy ruhiy qalqoni bo'lgan, ya'ni ular mening asosiy raqiblarim bo'lishi mumkin. Aroning o'zi va uning izdoshlari ortda ohista kelishardi. Ular turli xil ko'rinish va

yoshdagи vampirlarning zich zanjiri bilan muhofazalangandi. Ular yetarlicha yaqinlashgach, ularning yuzlaridagi ifodalarni bemalol ko'rish imkoniyati shakllandi. Ularning tashqi qiyofalari... Ular ringga chiqqan bokschilarga o'xshardi. Bu ular uchun shunchaki ishdek tuyulardi. Aro haqiqatan ham kuchli va sodiq armiyani yaratishga muvaffaq bo'libdi. Butun dunyodagi tengi yo'q qo'shin...

Ularning barchasi tekislikdan o'tib, Bagirradan bir necha qadam narida bizning qarshimizga to'xtashdi. Endi ularning kuchi va soni yanada aniqroq sezildi. Ular olomon ichida bizni oyoq osti qilishlari mumkin edi.

Ikkita yetakchi yigit o'z rahnamolarining o'tishi uchun ora bo'shatishdi. Aro oldinga biroz qadam tashladi va o'zining jirkanch ovozida gapira boshladi:

- Karayl, qadrdom! Ko'ryapmanki, siz bizlarning yordamimizni ham kutmasdan, bu yovuz maxluqni yo'q qilish uchun birgalikdagi rejamizni amalga oshirishga kirishgansiz! Bu maqtovga sazovor! – U makkorona nigohini Bagirraga qaratdi.

Karayl norozilik bildirish uchun og'iz juftladi, ammo Bagirra undan avval so'z boshladi:

- Yovuz maxluq deganda sen o'zing va yoningdagi qabih kimsalarni nazarda tutyapsanmi, Aro? – bu so'zlardan so'ng u qahrli jilmaydi.

Aro sekin boshini Bagirra tomon burdi va uni o'tkir qarash bilan qarshi oldi:

- Oh, chatishma maxluq ovoz bergen ko'rindi? Salom, mashhur Bagirra! Nihoyat, sen bilan uchrashganidan xursandman. Bugun men o'nlab yillar oldin boshlagan ishimni yakunlayman va, nihoyat, Vergil klanining so'nggi vakilini ham yo'q qilaman!

Bagirra o'zining kuchi va ustunligini zavq bilan namoyish etib, qo'llarini beliga qo'ydi. – Yo'q, Aro! Aksincha, men yer yuzidan bir necha o'nlab yaramaslarni qirib tashlamoqchiman, shuning uchun ko'plab yillar mobaynida yashab kelmoqdamon. – Uning qalqoni yangi, hayratlanarli kuchga kirgandi. Bu kuch bizni energiya bilan yanada kuchliroq ta'minladi, bizga dalda berdi. Vujudimdan elektr toki o'tayotganini sezardim. Bu yoqimli, ajib tuyg'u va cheksiz kuch hissi edi.

Aro namoyishkorona Bagirradan yuz o'girdi. Uning ifodasi muloyim va do'stona bo'lib qoldi.

- Karayl, qadrdom, men bu maxluqni yo'q qilgani kelganman va bu masalada oilangiz yordam berishiga umid qilaman. – U umid bilan Karaylning ko'zlariga tikildi.

- Aro, azizim! – Bagirraning so'zlari kinoya va masxaraga yo'g'rilgandi. – Ular mening himoyam ostida. Endi esa, sening oldingizda turgan ikkita mishqi qanchalik urinmasin, ularga ta'sir qila olmaydi! Shunday qilib, sening yolg'onlaring ancha oldin fosh bo'lган va sen endi urinib ko'rolmaysan. Ular butun haqiqatni anchadan beri

bilishadi. – Bagirra harakatlanib, o'rnidan siljidi, shunda biz ham, Aro ham uning yuzini ko'rishimiz mumkin edi.

Aroning qarashlari shafqatsiz va sovuq bo'lib qoldi. – Xo'sh, qotil maxluq, – u nafrat bilan Bagirraga qaradi – sen bugun baribir o'lasan, va siz qadrdon Kallenlar, - u sekin o'sha jirkanch nigohini Karlaylga qaratdi – jang qilish uchun o'z tomoningizni tanlashingiz kerak... – Uning yuzi mamnunlik bilan tirjaydi. – Shunchaki esda tuting: son va kuch ustunligi men tomonda!

Shunda men qahrli bir o'kirishni eshitdim. Bu Jeykobning hirillashi edi. U hozir Aroning tomog'ini ushlab, parchalab tashlashga tayyor edi. Karlayl unga ko'z qirini tashlab, tinchlanishga chaqirdi va keyin Aroning ko'zlariga qaradi. – Xo'sh, mening eski do'stim Aro! – Uning ovozi xotirjam va ishonchga to'la tarzda yangrardi. – Agar bugun biz o'lishimiz taqdirga bitilgan bo'lsa, undaadolat uchun, ya'ni Bagirra uchun buni qilishni afzal ko'ramiz. Shundagina bizning ruhimiz bu dunyoni og'ir yuk bilan emas, osonlikcha tark etadi!

Aro ko'zlarini qisib, Karlaylning yuziga yanada tikilibroq qaradi. Vujudimdan sovuqlik o'tayotganini sezdim. Ushbu qarash nafrat va hafsalasizlikka to'lgandi.

- Karlayl, Karlayl... Sen har doim juda rahmdil va xushmuomala kimsa bo'lgansan. Ushbu xususiyatlar vampir hayotiga mos kelmaydi. Sen doimo ruhning mavjudligiga va o'limdan keyingi hayotga ishongansan. Sen oddiy haqiqatni tushuna olmading. Karlayl, uyg'on! Nihoyat, atrofga nazar tashla, mana bu o'limdan keyingi hayot – tanlanganlarga berilgan vampir hayoti. Undan keyin hech narsa yo'q va bugun sen bunga amin bo'lsan. Men esa abadiy mangu qolaman! – U qo'llarini osmonga ko'tardi, yuziga mamnun tabassumga yugurdi – Men va Xudo bor! Men Xudoman! – uning ovozi qichqiriqqa aylandi. Bu so'zlar miyamda aks-sado berardi. Ammo, hamma uchun kutilmaganda, ushbu spektaklni Bagirraning tinch va ishonchli ovozi to'xtatdi. – Aro, bu qanday maynavozchilik? Ikkalamiz ham bugun birimiz vafot etishimizni bilamiz. Xo'sh, nima uchun vaqtini sarflash kerak? Men bu suhbatdan hech qanday ma'no ko'rmayapman. Hozir orzu qiladigan yagona narsam - tanangni parcha-parcha qilib, uning olovda yonishini kuzatish, xolos! Sen oilamning o'limi uchun tovon to'laysan – bu so'zlar bilan Bagirraning yuzi dahshatli azob bilan chulg'andi – Sen har bir vayron qilingan jon uchun tovon to'laysan! Avval bu dunyoda, so'ngra narigi dunyoda... Men esa buni kuzatib turaman. Aytgancha, Aro, sen ruhning nima ekanligini tez orada bilib olasan. Menga ishon, keyingi dunyoda qalbingni mangu zulmat chulg'ab oladi. Shunday qilib, sen ikki marta kuyishingiz kerak. Birinchisi, bu gulxan ustida – u yonayotgan gulxanga ishora qildi. – Va keyin do'zaxda! Bu so'zlar bilan Bagirraning yuzi baxtli tabassum bilan porladi.

Aroning yuzi kulgu aralash jilmaydi. Bu qo'rquv dahshatga solgan jilmayish edi. Ammo u tezda his-tuyg'ularini so'ndirdi va uning ifodasi yana mo'tadil bo'lib qoldi. U nafrat bilan Bagirraga qaradi. – Xo'sh, jirkanch maxluq, o'lish vaqting keldi!

Baxslashib o'tirishdan nima foyda? – Keyin deyarli sezilmagan holatda bosh irg'ab, qo'shiniga oldinga borishni buyurdi. Ilgari uning atrofida tinch turgan vampirlar...? Go'yo ular jonlanib, kuchimizga baho berib, uloqtirish vaqtini tanlagandek, asta-sekin biz tomon yurishni boshladilar. Aro qimirlamadi va faqat qo'llarini ko'kragiga qo'ydi. – Alvido Kallenlar, alvido Vergil va Danteylar! Men sizlarni yo'q qilaman! Bu so'zlarni ayta turib u qahqaha otib kulib yubordi. U g'alaba qozonganiga ishonch hosil qilardi.

Vujudimni qo'rquv zanjirband qildi. Vaziyatning butun dahshati, nihoyat, menga yetib kela boshladi - endi shiddatli jang boshlanadi, bu jangda biz hammamiz halok bo'lamiz... Men qora rido kiygan vampirlarga nafrat bilan qaradim. Ular o'lim jangida to'qnashish uchun yetarlicha yaqinlashdilar. Butun Volturiylar qo'shini Bagirradan bir necha qadam narida turardi. Bu holat meni seskantirib, diqqatimni jamlashga majbur qildi. Men Renesmini quchoqlab, uni qo'llarim bilan o'radim va butun oilamga, shu jumladan, Jeykob va Bagirra ustiga qalqonimni tashladim. Darhol noma'lum kuchlar har tomondan qalqonimga zarba berishni boshladilar. Ammo ular biz uchun qo'rqinchli emas edi. Men ularning hujumini osonlikcha bartaraf qila olardim. Mening qalqonim mustahkam edi. Men buni hayratlanarli tarzda osonlikcha bajarardim. Endi Volturiylar armiyasining jismoniy hujumi ko'proq tashvishga sola boshladi. Bagirra menga boshimizni telepatlar (ruhiy hujum)dan himoya qilish majburiyatini yukladi va o'zi jismoniy jangni tanladi. Umid qilamanki, uning kuchi ularning barchasini yo'q qilish va oilamizni himoya qilish uchun yetarli bo'ladi. Bagirradan chiqadigan quvvatni his qildim. Uning kuchi ishonchimni yanada mustahkamladi. Uning qasos olishga chanqog'i shunchalik kuchliki ediki, bu uning himoyasi ostidagi har birimizga o'zgacha kuch tarqata boshladi.

Ammo, kutilmaganda, o'zgacha bir narsa yuz berdi. Bagirra mudofaa holatiga tushdi. U egilgan, sochlari itni ko'rgan mushukning tuklariday tik turar, barmoqlari tirnoqlarga burkandi. Uning bo'g'zidan bo'g'iq, xirillagan tovush chiqqa boshladi. U kapalakdek osongina baland ko'tarib, havoda panterra ga aylandi. Ulkan qora qoplon bo'lib, yerga tushdi. Orqasidagi mo'yna ko'tarilgan, tishlari yaqqol ko'rinish turardi. Ko'zlar olmosdek tovlanuvchi yorqin yashil tusga kirdi. Bagirra g'azab bilan xirilladi va asta-sekin, ohistalik bilan Volturiylar qo'shini tomon oldinga harakatlandi. Panterra gumburlashdek sovuq tarzda o'kirdi. Bir lahzadan so'ng Bagirra ko'zdan g'oyib bo'lib, havoda erigandek tuyuldi. Bir soniya o'tgach esa Arodan atigi yarim qadam narida so'nggi qatorda turgan vampirlardan biri qanday qilib parchalanib ketganini ko'rdim. Tanasining ayrim qismlari to'g'ridan-to'g'ri olov alangasiga uchib ketdi. Shunda angladimki, Bagirra hech qayerga ketmagan. U shunchalik tez harakat qildiki, hatto vampirning ham ko'zi uning harakatini kuzatib ulgurolmadi. U Volturiylar armiyasigi jangchini Arodan atigi yarim qadam narida o'ldirdi, uni parchalab tashladi, uning dahshatli armiyasi esa bunga munosabat bildirishga ham

ulgurmadi. Ammo ularning yetakchisi o'sha baxtsizning o'rnida bo'lishi mumkin edi. Lekin u Aro bilan aniq o'ynab, uni mazax qilar, o'ldirishdan oldin uni masxara qilmoqchi edi. Men nigohimni Aro tomon burdim. U nima bo'lganini endi his qila boshlagandi. Uning yuzi qo'rquvdan bujmayib ketdi. Yaqinda ichimizda tinchgina yurgan yirtqich hayvon endi butun Volturiylarni oxirigacha qirib tashlashga kirishib, urushga chanqoq holga kelgandi. Bagirra o'z harakati bilan bizga kuch va o'ziga bo'lgan ishonch taqdim etdi.

Aro qo'shiniga buyruq berib, qo'lini ko'tardi va ular tahdidli tarzda bizning tomonga yugurdilar. Vujudim taranglashib, joyida qotib qoldi, qo'llarim hali ham Renesimini mahkam ushlab turardi. Qalqonimni yanada kuchliroq yoydim, uning kuchini ishga sola boshlagandim. G'alati bir haqiqat mening e'tiborimni tortdi: Volturi vampirlari, ma'lum bir nuqtaga yetib kelib, parchalanib keta boshladi. Ular bizga yaqinlasha olmadilar. Bunday qo'shinni to'xtata olgan kuch Bagirra edimi? Bu juda ajoyib tuyuldi! Ushbu holat Volturi vampirlarini sarosimaga soldi. Shubhasiz, ular qora panterrani ham ilg'amay qolishdi, u ko'p harakat qilmay dushmanni muttasil kamaytirib, tanasining qoldiqlarini olovga tashlardi.

O'zini saqlab qolish instinkti (beixtiyoriy kuch) qo'zg'aldi va Volturi armiyasi taqiqlangan chiziqdan o'tishga jur'at etolmay, joyida qotib qoldi. Bagirraning shovshuvli kulgisi osmon bo'ylab yangradi. Va, keyin, o'rmon qaridan uning mammun ovozi eshitildi – Nima, Aro, bu sening kuching chegarasidan tashqari vaziyatmi? – Bagirra yana gulduros kulgi bilan qahqaha urdi.

Men Aroga qaradim. U o'zining joyida, izdoshlari qurshovida turardi. Uning yuzi g'azabdan va nafratdan titrardi. – Olg'a!!! Uning ovozi qichqiriqqa aylangandi. "Nobakorlarni qirib tashlang!" Vampirlar, ikkilanmasdan, itoatkorlik bilan yna hujumga o'tdilar. Ularning hujumi, nihoyat, Bagirraning himoya to'sig'ini yorib o'tdi. Emmett, Jasper, Jeykob, Edvard, Ellis va, hattoki, Karlayl ham jangga kirishdi. Vaziyat qaltislashib ketayotgan edi. Mening mustahkam yuragim oilam uchun qayg'ura boshladi. Atrofimda dahshatli hayqiriqlar eshitilardi. Qulog'imdan metallarni sindirilgandek ovoz eshitilardi. Odam tanasiga emas, balki metall va plastmassa parchalariga o'xshab tushunarsiz qismlar olovga uchib borardi.

Yarim daqiqadan so'ng Volturi vampirlari bizning orqa himoya chizig'imizga yo'l oldilar. Rozali va Esme jangga kirishish. Beixtiyor egildim va yana mudofaa holatiga tushdim. Mening tanam jangga tayyor edi. Men o'zimdan ikki qadam narida Rozali bilan jang qilayotgan vampirga sakrashga tayyorlandim. Ammo to'satdan bir ovoz meni to'xtatdi. – To'xta. Joyingdan qimirlama! – Bu Bagirraning ovozi edi. Ovoz qulog'imda emas, balki miyamda yangradi. U men bilan ruhan gaplashardi. – Sen qalqonni ushlab turishingiz kerak. Ularning barchasi sening himoyangga muhtoj. Diqqatingni jamla! Sen himoyani yo'qotmoqdasan. – Uning ovozi mayin va latofatli edi. Har bir so'zi ongimda aniq yangrardi. Mening ichimda. Bu ajoyib edi...

8-BOB

QALBLAR NOLASI

Joyimda qolish va yana diqqatni jamlash men uchun katta kuch talab qildi. Ammo Bagirra menga yordam berdi. Men uning borligini his qildim. Ichimda, go'yo uning ko'rinas kuchi tanamni boshqarar edi. Men uning borligini har bir hujayram bilan his qilardim. U menga kuch berardi. O'rningizda qimirlamay shunchaki oilangizning jangini tomosha qilish va o'lim changaliga duch kelishni ko'rish chidab bo'lmas azob edi.

Men qalqonimni mustahkamladim va, shu orada, ular har tomondan ruhiy hujumlar bilan bosim berib, himoyamni yorib o'tishga urinishardi. Mening butun e'tiborim oilamga qaratilgan edi. Men Emmett va Jasperning dushmanlari bilan qanday kurashayotganlarini kuzatdim. Ular uchun bu shunchaki o'yin, boshqa ko'ngil ochish kabi tuyulardi. Ammo mening tanam beixtiyor ular uchun eng kichik xavf uchun ham mas'ul edi. Maydonning narigi tomonida Ellis mohirona kurashardi. Uning tanasi jangda raqsga tushganday edi go'yo. Mening yonimda Esme qandaydir qiz bilan to'qnashdi. Kuch ustunligi aniq Esme tomonida edi, lekin har doim mehribon va oqko'ngil bo'lgan aziz xudojo'y onamni tomosha qilish menga noqulay edi, endi u tishlagancha dushmanini parchalab tashladi. Mening nigohim beixtiyor Edvardni izlab, alanglab atrofga qaradi. Men u haqida eng ko'p tashvishlanardim. U Kayus bilan kurashardi va uni deyarli yo'q qilay dedi. Birdan xayolimga Aro qadrdonini jangga yubordi, degan fikr keldi. Bu uning armiyasi deyarli mag'lub bo'lganligini va bizning g'alabamiz allaqachon yaqin ekanligini anglatadimi? Bagirrani qidirib atrofga nazar tashlay boshladim. Butun maydon alanganayotgan olovdan chiqqan quyuq oq rangli tutun bilan qoplangan edi. Shu tufayli nimanidir ko'rish qiyin edi. Men ko'zlarimni tikkancha, maydon oxirida sharpalarning xira qiyofalariga tashladim va ulardan biri Bagirra ekanligini sezdim. U tezda harakatlanib, tashqi qiyofasini o'zgartirdi. Uning harakatlari shu qadar tez ediki, u hozir panterra yoki inson qiyofasida ekanligini tushunishning imkonini kolmagandi. Bir dushmani ulkan vaxshiy mushukning qora panjasini olovga uloqtirgandek tuyuldi, ikkinchisini zudlik bilan nozik, ammo nihoyatda kuchli qizning qo'li bo'g'zidan tutgandi. Bagirraning har bir harakatini diqqat bilan kuzatdim. U, hatto, jangda ham maftunkor edi. Uning har bir harakati murakkab raqs elementlariga o'xshardi. Ha, u raqsga tushardi. Uning jigarrang terisi ostida mushaklari qanday o'ynayotganini, sochlari shamolda qanday uchayotganini hayrat bilan kuzatardim. Bagirra betakror edi. U xuddi malakka, mehribon qalbga ega, lekin shafqatsiz qora farishtaga o'xshardi. Men uning qisqa umri davomida boshdan kechirgan barcha narsalarni tasavvur qildim. Ha, tabiiyki, uning yuragi tosh qotib muzlagan, u barcha insoniy his-

tuyg'ularni ong ostiga ko'mgan va ularni bandi etgan. Ammo qalbi tubining qayeridadir, shuncha yomonlik qilingan, himoyasiz kichkina bola yashiringan-ku! Men unga hamhard bo'ldim va, shu bilan birga, unga hasad qildim. Ha, u juda ko'p qayg'u chekdi, barcha yaqinlarini yo'qotdi, bu uni toblagan. ammo zaiflashtirib qo'ygandi. Men uning holatini tushunish uchun butun oilamdan ayrilishim kerakligini tasavvur qilib, ruhan depressiyaga tushib qoldim. Bu fikr meni dahshatga soldi va men, darhol, bu hayollarni daf qilishga qaror qildim.

Keyingi lahzada ulkan qora panterra yerga tushdi. Men oilamizdan hech kim zarar ko'rmanligiga ishonch hosil qilib, yana bir bor butun maydonga sinchkovlik bilan nigoh tashladim. Men yengil nafas oldim – hamma yaxshi edi. Volturi armiyasidan deyarli hech kim qolmaganligi meni hayratga soldi. Bagirra jangning asosiy qismini o'z zimmamizga olib, bizning ishonchimizni oqladi va u bu vazifani osonlikcha bajardi. Endi jang Volturiylar oilasi bilan, uning tarafdorlari bilan kechdi. Bu qanday ajoyib edi! Ikki qudratli vampir oilalari to'nashgan, buning natijasi esa endi ravshan edi. Sulolalardan biri yo'q bo'ladi va sayyoradagi barcha vampirlarning tartiboti o'zgaradi.

Mening e'tiborim ortimdan kelib menga hujum qilmoqchi bo'lган vampirga otilib, uni parchalab tashlagan bo'riga tushdi. Men Jeykobga ruhan minnatdorchilik bildirdim. Men yana nigohimni Bagirraning jangi tomon burdim. Uning harakatlari nafisligi va mukammalligiga qoyil qolmasdan iloj yo'q edi. Nihoyat, ushbu jangning uzoq kutilgan avj nuqtasi yetib keldi. O'z xo'jayinini qo'riqlab turgan bir nechta yosh vampirlarni Bagirra yon tomonlarga sochib yuborganini, beparvolik bilan o'girilib, ularga zaharxanda nigoh tashlaganini kuzatdim. Bir lahzada u yugurayotgan Aroga tashlandi va qo'lining panjalari bilan uning tomog'iga changal soldi. Endi bu dunyoda hech narsa uning qo'lidan Aroni ajratolmasligini bilardim. Men atrofga qaradim va butun Volturi klani deyarli qirilib bo'lganini ko'rib hayron qoldim, uning izdoshlaridan asar ham qolmagandi. Bagirra bizning asosiy dushmanimizni yo'q qilayotganini butun oila bir nafasda tomosha qilardi.

Ruhim taskin topdi. Men g'alabani ta'mini his qildim, hayajondan vujudim titrab ketdi. Mening nigohim Bagirraga qaratildi. U mohirlik bilan Aroning tanasini kuch bilan yerga urib, deyarli yopishtirib qo'ydi. Uning ko'zlarida nafrat va qasos uchun tashnalikning olovi alangalardi. Endi uning qiyofasi deyarli tanib bo'lmaydigan darajada nafrat bilan mavjlanardi. Sovuqlik vujudim orqali tarqalayotganini his qila boshladim. Bagirra odam qiyofasida edi, lekin uning ichidagi yirtqich uyg'ongandi. Bagirra mag'rurlik bilan boshini ko'tardi vasov uqqonlik bilan dedi – Danteylar uchun! Vergillar uchun! Oilam uchun! – shu so'zlarni ayta turib, u tishlari bilan Aroning tomog'idan bo'g'izladi. Dahshatli hayqiriq eshitildi. Aroning o'lim hayqirig'i metall parchalangan holatdagidek tovush bilan aralashib ketdi. Men Bagirraning vujudimda mavjudligini hanuzgacha his qilardim, men uning his-

tuyg'ularini u bilan barobar boshdan o'tkazayotgandim. Vujudimni zavq to'lqini qamrab oldi. Men asta Bagirraning zavq bilan tanani parchalab tashlashini kuzatdim. Bir lahzaga meni qo'rquv iskanjasiga oldi va men ko'zlarimni chetga oldim. Atrofdagilar hayratdan muzlab qolishgandi. Mening oilam ham, Volturi qo'shinining achinarli qoldiqlari ham Volturiyning buyuk hukmdori qulab tushganiga guvoh bo'lishdi, lekin g'alati bir sharpa mening diqqatimni tortdi. O'n ikki yoshlardagi, oq rangdagi ko'yak kiygan, qisqa sochli qiz asta-sekin Esmega yaqinlashardi. Men bu qizning yuziga qaradim. U hali ham bolalarcha edi. Yaltiroq qora kirpiklar bilan chegaralangan ulkan tubsiz ko'k ko'zları porlab turardi. U oddiy qizchaga o'xshar, lekin uning qaysidir jihatı g'ayrioddiy edi. O'ziga xos hid va g'ayritabiyy xiralashgan yuz qiyofasi.... Uning terisi biznikiga o'xshab quyoshda yarqiramas, ko'zları butunlay insonnikidek edi, lekin u albatta, vampir edi. Ey, Xudo! Bu Aida-ku! Bagirra bizni ogohlantirgan jon o'g'risi! Tahlikali nigohlarimni Esmega qaratdim. Uning yuzi sokin va samimiyl edi. Ko'zlarida onalik mehri, g'amxo'rligi va iliqligi porlab turardi. U o'zini himoya qilishni xayoliga ham keltirmasdi. Aida unga yaqinlashib, oyoq uchida turgancha kichkina qo'lini Esmening yuziga uzatdi. Qizaloqning yuzi bolalik quvonchidan porlab turardi. Meni dahshatga solgani Esme undan uzoqlashishni o'yamas, aksincha, oldinga egilib, bu kichkina qotilning unga teginishiga imkon bergani bo'ldi. Meni dahshat qamrab oldi... Tanam tortishib, toshdek muzlab qoldi. Men xuddi falaj bo'lib qolgandek, hatto, barmoq uchini ham siljita olmasdim. Men Esmaning bunday xavf-xatarga duchor bo'lishiga nima sabab bo'lishi mumkinligini bilardim. U bu qizdagi xavfni sezmayaptimi? Yoki uning onalik mehri shunchalik kuchliki, u bolaga, hatto vampir bolaga zarar yetkazishdan ko'ra o'lishni afzal biladi! Bu orada Aida qo'lini Esmaning yonog'iga mahkam bosib, ruhini magnitdek torta boshladi. Aidaning ko'zları oppoq va ko'rmaydigan bo'lib, nafratdan yuzi buzilgan edi. Men qichqirmoqchi bo'ldim, lekin tomog'imdan jonsiz, zo'rg'a seziluvchi tovush chiqoldi, xolos. Ovoz pardalarim qo'rquvdan qulflangan edi. Hozir Esmega yordam beradigan yagona kishi Bagirra edi va men uni chaqirdim.

Hozirgacha bizni birlashtirgan ushbu ko'rinnmas aloqa orqali men uni ruhan chaqirdim. Bagirraga xabar berdim, u meni eshitdi. Men ko'zlarimning burchagidan Bagirraning Aro jasadining qoldiqlarini olovga tashlashini va Esmega yordamga shoshilayotganini kuzatdim. Ikki keng sakrashda Bagirra maydonni kesib o'tib, Esme bilan Aida o'rtasida tushdi. Bu paytga kelib qolganlar o'zlariga kelishdi. Avval Edvard ularning yoniga sakrab tushdi. U, tom ma'noda, Bagirradan Aidani olib, irg'itib yubordi. Emmet va Jasper uchib ketishdi. Uchalasi qochib ketayotgan Aidani olovga sudrab borishardi. Ammo endi bu meni tashvishga solmasdi. Vujudimni qamrab olgan qo'rquv yanada kuchliroq bosqichga ko'tarildi. Men Bagirraga qaradim. Uning nigohi xiralashgan edi. Uning tanasi titrar, oyoqlari bo'shasha boshlagandi. Men nigohimni Esme tomon burdim. O'sha nimadir yomon narsa uning boshiga tushdi. Bir necha soniyadan so'ng, ularning jonsiz tanalari yerga yiqildi. Atrofdagilar bir vaqtning o'zida chuqur nafas olishdi. Karlayl darhol Esme va Bagirraning yoniga sakrab tushdi va boshqalarga tezda gapira boshladi. Ammo men bu so'zlarni eshitolmadim, yuzlarini ko'ra olmadim. Zulmatda ko'zlarim oldida Bagirraning qiyofasi turardi. U Esmening qo'lidan mahkam ushlagandi. Esmening boshqa qo'lidan esa Aida mahkam tutib, uni qora tubsiz zulmat ichiga tortardi. Bagirraning qanday qarshilik ko'rsatganini ko'rdim, lekin uning kuchi Aidanikidan kam edi va ular astasekin, lekin baribir zulmatga botib ketishardi. Bagirraning ikkinchi qo'li mening kaftimni qisayotganini ko'rib dahshatga tushdim va meni ham sudray boshladi. Bagirraning ovozini eshitdim. U menga kaftini qo'yib yuborib, nur tomon harakatlanishimni buyurdi, lekin men endi buni qila olmasdim. Qora bo'shliq meni juda qattiq tortardi. Vujudim sustlashib, menga bo'ysunishni to'xtatdi. Oyoqlarim po'latdek bo'lib qolgandi. Men, tasodifan, Renesimni yerga qo'yib, qora cheksizlikka tushib qolgandim.

9-BOB TASHQARIDA

Men endi maydonni ko'rmas, boshqalarni his qilmasdim... Mening qarshimda zulmat girdobi aylanardi. Men endi tanamning og'irligini sezmas, qo'llarim, oyoqlarim, ko'zlarimni his qilmasdim... Men ulardan olisda go'yo suzib yurardim. Mening ruhim ozod edi. Men o'lik go'sht zindonidan qutulgandim. Meni bir muncha muddat zavq o'z bag'riga oldi. Ammo bir lahzadan so'ng uning o'rmini umidsizlik va qo'rquv egallay boshladи. Men Renesmi va Edvardni, u dunyoda qoldirgan barcha yaqinlarimni esladim. Hozir ular qanday azob chekayotganlarini tasavvur qildim. Buni qanday qilganimni anglolmay qoldim. Qanday qilib tanamdan chiqdim? Barirra va Esmening sharpalarini dahshatli bo'shliqda aniqlashga kirishdim, atrofga alangladim, ammo harakatlarim natija bermadi – ular hech qayerda yo'q edi... Meni umidsizlik va vahima bosdi, men bu qora tuynukda adashib qolishimdan va bu yerda abadiy qolib ketishdan qo'rqardim. Men baqirishga urindim, lekin buni uddalay olmadim, qochmoqchi edim, lekin qochishga hech qanday joy yo'q edi, o'tib bo'lmas zulmat meni har tomon dan o'rab olgandi. Mening najotim uchun yagona umid Bagirra bilan aloqada edi, bu g'alati bo'lsa-da, men hali ham o'zimni his qilardim. Men diqqatimni jamlab, unga ruhan bog'lanishga kirishdim va javobni eshitib yengil tortdim.

- Bella? Bella, shu yerdamisan?! – uning ovozi yangray boshladи – ketishingizni so'ragandim! Nega menga bo'ysunmading?

- Bagirra! – So'zlar xayolimda go'yo tomog'imga tiqilayotganday edi, men ularni ayon etolmayotgandim – Bagirra, sen meni qattiq ushlab qolding, kuchim yetmadi, kechir... – men jimgina yig'ladim. – Menga nima bo'lganini tushuntirib bera olasanmi?

- Ey Xudo, men nima qildim! – ajablangancha Bagirra menin so'zlarimdan g'azablanmadi, aksincha, uning ovozi biroz yumshadi. – Bella, shoshilinch bu yerdan ketishing kerak! Sen meni eshitayapsanmi?

- Ha, Bagirra, seni eshityapman! Ammo bu yerda nima bo'layapti? Men butunlay yo'qlikdaman! Biz qayerdamiz? Hamma qayerda? – Men so'zlarni iloji boricha baland va aniq talaffuz qilishga urinardim, lekin ular zulmatda go'yo erib ketardi.

- Bella! Menga quloq sol! Aida yo'q qilindi, lekin bundan oldin u Esmening jonini olishga muvaffaq bo'ldi va endi uni do'zaxga sudrab ketmoqda. Men Esmeni chiqarib olish uchun uning orqasidan bordim va tasodifan seni o'zim bilan birga tortib ketibman, aniqrog'i, sen menga bog'lanib qolgan ekansan, seni to'xtata olishga ulgurmadim. U xotirjam gapirishga urindi, ammo vahima uning so'zlarini buzib tashlardi.

- Ammo bu qanday sodir bo'ldi? Men senga tegmadim, hatto, yaqinlashmadim-ku? Qanday qilib men tanamdan chiqishga muvaffaq bo'ldim?

- Bella, sen oramizdag'i ko'rinxas aloqani his qilyapsanmi? – U mening javobimni kutmadi va tezda davom etdi. – Bu Dantey oilasi a'zolari o'rtasidagi aloqadir! Bo'rilar o'rtasidagi aloqaga o'xshash narsa, faqat yuqori darajada. Bellani eshityapsanmi! Men siz haqingizda noto'g'ri fikrda ekanman! Sen in'omingni yo'qotmagansan, balki uni yaxshigina pinhon saqlagansan! Tahlikali vaziyatda sening qobilyating ishlab ketdi va men uni darhol aniqladim. Bella, men senga bu kuchni olib yurishing va o'zingni haqiqiy Dantey ekaningni bilishingni istayman. Agar men bu yerdan qaytolmasam, men bilan oilam shajarasi yakun topmaydi, balki sen va Renesmi uni davom ettirasizlar!

- Girra! – Ovozim titrab ketdi. - Sen nima demoqchisan, qaytib kelmaysanmi?

- Bella, men Aida bilan kurasha olamanmi yoki yo'qmi, bilmayman. Uning ruhi uning tanasidek kabi kuchli. Men esa Esmeni tashlab ketolmayman. Buning uchun jonimni fido qilishimga to'g'ri kelsa ham uni qutqarishga harakat qilaman.

- Yo'q! Bagirra, yo'q! – nihoyat, mening ovozim ko'tarildi. Men ingrardim.

- Bella, Volturiylar yo'q qilindi, demak men oilam uchun qasos olishga muvaffaq bo'ldim. Sen va Nessini topdim – Dantey va Vergillarning buyuk oilasini davom ettiradigan davomchilarni topdim. Bu esa mening vazifam to'liq bajarilganligini anglatadi va bu dunyoda meni ushlab turadigan hech narsa qolmadidi... Men endi xotirjam ketishim mumkin. – Uning ovozi titrab ketdi. Men bu so'zlar uning uchun qanchalik og'irligi va Bagirraning hayotga qanchalik chanqoqligini bilardim. – Bella, tanangga qaytishing kerak, eshityapsanmi?

- Girra, men seni bu yerda qoldirolmayman!

- Sen buni qila olasan, Bella! Qilishing shart! Sening oilang senga muhtoj! Bizning baxslashishga vaqtimiz yo'q. Qolaversa, ikkalangizni ham chiqara olmayman. Buni o'zing hal qilishingiz kerak. – Uning ohanglari buyruq kabi shafqatsiz tarzda yangradi.

- Lekin, qanday qilib... men... bilmayman! Girra, menga yordam ber!

- Bella, men seni ushlab turganim yo'q. Sen menga ergashyasan! Aida senga tegmadim. Sening bu yerda ekanligingning yagona sababi bu bizning rishtalarimiz. Fikringni jama, Bella! Oilangni o'ylab, nurga tomon yur, men Esme haqida qayg'uraman.

Ovozim titrab ketdi va birdan ko'z yoshlarim to'kila boshladi. Mening tanasiz qalbim yig'lay boshladi, olovli ko'z yoshlarim to'kilardi. – Bagirra, agar dosh berolmasang nima bo'ladi? Ehtimol, men senizga yordam bera olarman?

- Bella! Uning ovozi susaydi. – Iltimos, ket... – U shivirlashga o'tdi. – Bo'laqol endi! Ikkalangiz uchun kurashish menga qiyin. Iltimos, ket... ketaqol...

U yelkasida tog' ko'tarib turgandek gapirardi, bu esa uni chidab bo'lmas kuch bilan bosardi go'yo. Mening yagona to'g'ri qarorim bu yerdan tezroq chiqib ketishim ekanligini angladim. Men o'z xohish-irodamni mushtga yig'dim, yig'lashni to'xtatdim hamda Renesmi va Edvard haqida o'ylay boshladim. Mening jonsiz tanamga qarab, ular endi o'zlarini qanday his qilishlarini tasavvur qildim. Bu fikr meni titroqqa soldi. Hammasi menda yaxshi, deb ularni quchoqlab, tinchlantirishni xohlardim. Men deyarli jismonan Edvardning teginishini, uning muloyim qo'llari, mayin lablari bo'ynimni silayotganini his qildim. Renesmining qo'ng'iroqdek kulgisini his qildim. Shundan keyin bundan boshqa barcha fikrlar ikkinchi darajaga tushib, orqa fonga o'ta boshladi. Qalbimning muzlari erib, titroq ham to'xtadi. Oldinda men xira yorug'likni ilg'adim va unga qarab harakatlana boshladim. Bu men o'ylagandan ham qiyinroq bo'lib chiqdi. Ko'rinas kuch meni ushlab turganday edi. Men go'yo uning dadil panjalarini yulqib tashlab, itarib yubordim va asta-sekin, ohista oldinga qarab yura boshladim. Yorug'lik tobora kuchayib borardi. Keyin men o'zimni ko'rdim. Ammo bu ko'zgu tasviri emas edi. Men o'zimni birovning ko'zlar bilan yon tomondan kuzatardim. Mening jonsiz tanam shudring bilan ho'llangan o't ustida yotardi. Edvard va Ellis yonimda egilgancha turishardi. Ularning yuzlarida chidab bo'lmas og'riq va umidsizlik aks etgandi. Men diqqatimni jamladim va bor kuchim bilan oldinga intildim. Kuchli og'riq tanamdan otilib chiqdi, lekin men uchun bu ahamiyatsiz edi. Ushbu umidsizlikni oilamning chehrasidan o'chirish uchun men hamma narsaga tayyor edim. Yuragimga nimadir og'riqli narsa tig'dek sanchildi, porlashi ko'zlarimni kuydirdi. Men ko'zlarimni yumib baqirdim. Umidsizlik bilan to'lgan yovvoyi qichqiriq tomog'imdan otilib chiqdi. Ko'zlarimni ochib, yerda yotganimni ko'rdim, Edvard va Ellis hayrat to'la nigoh bilan qotib qolishgandi. Vujudimni zavq va yengillik to'lqini qamrab oldi. Men tanamga qaytdim va uni yana boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldim. Barcha tuyg'ular yana menda jonlangandi, faqat baland, qandaydir tushunarsiz ovoz qulog'imni kar qila yozdi. Bu mening faryodim ekanligini anglashga bir daqiqaga yaqin vaqt ketdi. Men qichqirgandim. Endi diqqatimni jamlab, o'zimni tinchlantirishga harakat qila boshladim. Edvard ehtiyyotkorlik bilan qo'limni yelkasiga olib, meni bag'riga bosdi. U o'zini yengil tortganini his qildim. – Tinchlan, Bella! Azizim, hammasi yaxshi, hamma dahshatli narsa tugadi. Sen men bilansan!

Ellis ham yonimga o'tirib, mehr bilan ko'zlarimga qaradi va qo'limni ohista silab qo'ydi.

Fikrlarimni yig'ib, nima bo'layotganini o'ylab, harakatsiz yotardim. Nihoyat, aqlim o'ziga keldi, fikrlarim aniq va ravshanlasha boshladi. Miyamda hukmronlik qilgan jumboq asta-sekin bir butun tasavvurga aylandi.

- Edvard, nima bo'layapti? – Men ovozimni tanimadim. U ovoz psychalarimni anchadan beri ishlatmayotganday, dag'al va qo'pol edi. – Bagirra qani? Esme qayerda?

- Men bular tasavvurimda emas, balki reallikda bo'lganligini eshitishdan qo'rqib, fikrlarimni tahlillay boshladim. Mening nigohim Edvardning xavotirli chehrasi bilan to'qnashdi.

- Bella, hammasi yaxshi, tinchlan – uning eritilgan mis rangidagi iliq g'amxo'r ko'zlar menga qaradi, lekin men ularda xavotir va qayg'u sezdim. U mendan nimanidir yashirayotgandi. Men nigohimni Ellisga qaratdim. U hali ham bizning yonimizda o'tirardi. Uning ham ko'zlarida og'riq va chidab bo'lmas iztiroblarni ko'rdim.

- Ellis! – meni vahima bosdi – Nima bo'lyapti? Menga haqiqatni ayt! Menga achinma! Bilishni xohlayman. Iltimos, aytaql...

Ellis Edvardga tikilib, pastki labini tishladi va keyin yana menga qarab so'z boshladi – Esme va Bagirra... ular xuddi sen kabi xushlaridan ketishgandi... lekin hanuzgacha o'zlariga kelishmadi...

Ko'ksimdag'i parchalanayotgan yurak og'riq va sog'inchdan ezilib ketdi. Men yana yig'lamoqchi edim, lekin ko'z yoshlarim qurigandi. To'satdan o'rnimdan turdim va boshqalar gavjum bo'lgan joyga shoshildim. Vujudim bo'ylab kuchli og'riq tarqaldi, lekin men bunga ahamiyat bermadim (ehtimol, bu mening tanadan tashqarida bo'lgan kichik sayohatimning oqibatlaridir).

- Yo'q! Bunday bo'lishi mumkin emas! – o'zimni tinchlantirishga urinib, pichirladim.

Uch qadam bilan men o'sha joyga yetib bordim, bir vaqtning o'zida Jeykob va Emmettni chetga tashladim. Keyin chorasisiz tiz cho'kdim... Oldimda ikkita jonsiz jasad yotardi... Ko'zlarim oldidagi voqealik yana bo'y ko'rsatdi. Bu haqiqatmi? Nahotki, Esme va Bagirra Aidaning changalida bo'lsa... biz ularga hech qanday yordam berolmaymizmi? Men xavotirli nigoh bilan jonsiz tanalarga tikilib turgan Karlaylga qarashga harakat qildim.

- Men qancha vaqt xushsiz yotdim? – ovozim sustlashdi.

Karlayl menga qayg'u va hasrat to'la ko'zlarini qaratdi – Taxminan ikki minut. Bella, ular hanuzgacha xushsiz. Bella nima bo'lyapti, senga nima bo'ldi? – u mening ko'zlarimdan madad izlardi. Ammo men unga nima deyishni bilmasdim. Men aybdordek nigohimni burib, atrofga qaradim. Atrofda faqat o'zimiznikilar bor edi. Rozalining qo'llarida o'tirgan Renesmini muloyimlik bilan silab, uning yonida odam qiyofasidagi Jeykob turardi.

- Qolganlar qani? Volturiylar qayerda? – Men hayratomuz nigoh bilan butun atrofni ko'zdan kechirdim.

- Biz g'alaba qozondik, Bella. Hammasi tugadi. – Edvard yonimga o'tirish uchun kelib, muloyimlik bilan qo'llarini yelkamga tashladi.

- Aida-chi? Unga nima bo'ldi? – dahshatli taxminlar mening fikrlarimni egallab olmoqda edi.

- U ham yo'q qilindi, Bella. – Jasper yonayotgan olovga ishora qildi. – Barcha Volturiylar qirib tashlandi. Endi bizda qo'rqa digan hech narsa yo'q.

Men Edvardning qo'lidan ushlab, kaftini mahkam siqib oldim. Endi kechiktirish mumkin emasdi. Men ularga butun haqiqatni aytishim kerak edi. Mening tasavvurlarim hayoliy fantaziya emasligini... Ular haqiqat, men bunga amin edim. – Esme va Bagirra bilan nima sodir bo'layotganini bilaman – mening ko'zlarim Karlaylning nigohi bilan to'qnashdi – Aida ularning ruhini o'zi bilan olib ketdi...

Dahshatli sukunat hukm surardi, men esa o'z fikrimni davom ettirishga shoshildim. Men ularga o'z tasavvurim haqida, Bagirra bilan bo'lgan aloqamiz, zulmatda u qanday qilib bo'shliqda qolib ketgani va Esme ruhi uchun kurashgani haqida batafsil gapirib berdim va u Dantey urug'idan men va Renesmini klanning oxirisiz, deb ataganini bayon etdim. Butun oila meni sinchkovlik bilan tinglab, faqat vaqtı-vaqtı bilan savollar berib turishardi. Mening hikoyamdan keyin hech qanday reaksiya kuzatilmadi. Bizni endi og'riq, qayg'u va zulmat chulg'ab olgandi. Esme va Bagirraga yordam berish uchun hech narsa qila olmasligimizni bilardik. Bunday vaziyatda biz ojiz edik. Faqatgina kutishimiz va umid qilishimiz mumkin edi, xolos. Bu esa jarayonning eng qiyin qismi edi. Biz Esme va Bagirraning jasadlarini daraxtli uyga olib borib, Girraning ota-onasi xonasidagi katta karavotga yotqizdik. Karlayl ularni bir daqiqa ham tark etmadni. Unga shifokor va Esmening sevgilisi sifatida hammadan ham qiyin edi. U o'zini aybdor his qilar, ularning bexushligi oldida ojiz ekanligidan azob chekardi. U ularning ahvolini doimiy nazorat qilib turdi. Bagirraning yuragi hali ham urib turardi va shugina bizga umid bag'ishlardi.

Kunlar, haftalar o'tdi... Men, hatto, hisobdan ham adashib ketdim. Ammo hech narsa o'zgarmadi. Bizning oila halovat topish uchun yer yuzida aylanib yurgan ruhlarga o'xshab qolgandi. Biz tabassum qilmasdik, gaplashmasdik, bir-birimizning ko'zlarimizga qaramaslikka harakat qillardik. Dunyo ostin-ustun bo'lib ketdi. Oiladagi kimnidir yo'qotishimiz mumkinligi haqida o'yplashni, hatto, birortamiz xohlamasdik. Bu qo'rquinchli edi, bu juda achinarli edi... Volturiylar mag'lub bo'lishdi, ammo biz bundan lazzatlanolmadik. Maqsadga erishildi, ammo qanday badal bilan... qanday tovon orqali...

Menga ajratilgan bir daqiqadan ko'proq vaqtini o'tkazib yubormaslikka harakat qilib, Renesmi va Edvard bilan imkon qadar ko'proq vaqt o'tkazishga harakat qildim. Tanaffus paytida u Esme va Bagirraning jasdralari ustida navbatchilik qilardi. Bagirra bilan aloqamni tiklashga doimo harakat qillardim, ammo bu behuda edi. Ushbu ko'rinas ip yo'qolgandi va men uni topolmayotgandim.

10-BOB UYG'ONISH

Tun bo'ldi. Men Renesmini o'rniga yotqizdim hamda tezda Esme va Bagirraning xonasiga kirdim. Karlayl va Jeykobdan tashqari butun oila ovga ketgan, men esa o'z fikrlarim bilan yolg'iz qolishim mumkin edi. Eshikni ehtiyotkorlik bilan ochib, faqat oy nuri bilan yoritilgan qorong'i xonaga kirdim. Albatta, u yerda Karlayl turardi. U keng karavotga egilib, harakatsiz o'tirardi. Meni ko'rgach, boshini ko'tarib qaradi. Uning nigohi menga elektr toki urganday ta'sir qildi. U juda ko'p og'riqni his qilayotgandi. Men hamon qadam bosishga jur'at etolmay eshik oldida qotib qoldim.

- Kir, Bella. Seni ko'rganimdan xursandman.

Men Karlaylning yoniga bordim va qo'limni uning yelkasiga qo'ydim. – Ular qanday, Karlayl? O'zgarish bormi?

- Yo'q. Hammasi avvalgiday – uning ovozi titrab ketdi. – Bella, menga ayt... ular bilan o'tkazgan so'nggi daqiqalariningi... U yerda o'zingizni qanday his qilding? Ular hozir nimani his qilmoqda? – Karlayl devorga qaradi.

Men deyarli so'z topolmadim. Men Karlaylga ozor berishni xohlamasdim. – U yer qorong'i va sovuq... Men u yerda yolg'iz edim va qo'rqardim. Ammo ular hozir birga! Men Karlaylga dalda berib yelkasidan siladim. – Karlayl, hammasi yaxshi bo'ladi, menga ishoning... Bagirra kuchli. U buni uddalay oladi va Esmeni yolg'iz tashlab qo'ymaydi!

- Men ham, albatta, shunga umid qilaman. Faqat kutish qiyinlashmoqda. – U yana ko'zlarimga qaradi, keyin men ularning rangini payqadim. Ular qoraygandi. Uning ko'zları ostida quyuq binafsharang shishlar paydo bo'lgandi.